



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Postda Ha nocty

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

2023-yil
28-dekabr
payshanba

№ 52 (4642)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqq boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

SARHISOB

SHARAFLI YO'LDA SOBITQADAMMIZ



Yil tugayotgan lahzalarda, tabiiyki, har bir inson yoki jamoa yil davomida bosib o'tilgan yo'lga nazar tashlaydi va sarhisob qiladi. Bu esa kelgusi yilda e'tibor berilishi lozim bo'lgan yo'nalishlarni belgilab olishda foydadan xoli bo'lmaydi.

Yakunlanayotgan yil O'zbekiston tarixida ko'plab yutuqlar va bunyodkorlik yili bo'ldi, desak, mubolag'a emas. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, soha vakillarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish tizimining yaratilgani har bir ijodkorni jamiyat hayotining faol, ilg'or fikrli vakiliga aylanishga undamoqda.



SHA'N, MAS'ULIYAT VA MUVAFFAQIYAT



Yurtimizda «Quvnoqlar va zukkolar» (QVZ) ko'rik-tanlovi haqida eshitmaganlar bo'lmasa kerak. Bu yil QVZ o'zining 30-mavsumini o'tkazdi. Ushbu tanlov O'zbekiston «Quvnoqlar va zukkolar» assotsiatsiyasi tomonidan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar ittifoqi hamda homiy tashkilotlar hamkorligida doimiy tashkil etib kelinmoqda.

Joriy yilda 130 dan ortiq jamoalar mavsum davomida saralanib, ular orasidan 6 jamoa final bosqichiga yetib keldi. E'tiborlisi, 2022-yilda tashkil etilgan hamda Ichki ishlar vazirligi sharafigi munosib tarzda himoya qilgan «Patrul» jamoasi mavsum yakunida faxrli ikkinchi o'rinni egallab, qimmatbaho esdalik sovg'alari va 100 million so'm miqdoridagi pul mukofotini qo'lga kiritdi.



2023-YIL MENING TAQDIRIMDA

TOSHKENT SHAHRI

2023-yil Toshkent shahar Yak-kasaroy tumani IIOFMB JTSTB PPX otryadi safdor xodimi, safdor Sirojiddin Norqobilovning hayotida esda qolarli yil bo'ldi.

Sohada qariyb 20 yil xizmat qilgan xodim joriy yilda Ichki ishlar vazirligi tomonidan ajratilgan imtiyozli uydan olishga muvaffaq bo'ldi. O'tgan yillar mobaynida u oilasi bilan ijarada yashab, ko'p

11-sinfda o'qiydi. Uning orzusi axborot texnologiyalari sohasining yetuk bilimdoni bo'lish. Hozirda shu yo'nalishda o'qishga kirish uchun qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqda. Kenja farzand Madinabonu esa 3-sinfda tahsil olmoqda.

– Soha xodimlariga keng imkoniyatlar yaratib berayotgan Yurtboshimizga va Ichki ishlar vazirligi rahbariyatiga o'z minnatdorigimizni



qiyinchiliklarni boshidan o'tkazdi. Biroq hayot uchun kurashda davom etib, turmush o'rtog'i Sevara Boyqulova bilan barcha qiyinchiliklarni yengib o'tdi. Turli murakkab vaziyatlarga duch kelishiga qaramay, uch nafar farzandining yaxshi ta'lim olishiga va tarbiyasiga e'tibor qaratdi. Mehnatlar va intilishlar besamar ketmadi. To'ng'ich farzandi Kamronbek Nuriddinov Ichki ishlar vazirligi tomonidan berilgan tavsiyanoma asosida Toshkent davlat transport universitetiga o'qishga kirdi. Hozir u oliy ta'lim muassasasining 3-kursida tahsil olmoqda. Ikkinchi o'g'li Davlatbek

bildiramiz, – deydi qahramonimizning turmush o'rtog'i Sevaraxon. – Bunday e'tiborga javoban, farzandlarimizni ham el koriga yaraydigan insonlar etib tarbiyalab, yurtimiz taraqqiyotiga o'z hissamizni qo'shayotganimizdan mamnunmiz.

Farzandi oilasi bilan yangi, zamonaviy uyga ko'chib o'tganligini eshitgan Sirojiddin Norqobilovning otasi Nuriddin bobo va onasi Maryam aya ham Qashqadaryodan turib o'g'liga sim qoqib, mamlakatimiz Prezidenti va o'g'lining rahbarlari haqqiga duo qilishdi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

FARG'ONA VILOYATI

Yakuniga yetib borayotgan yil men va oilam uchun baxtli kunlarni tuhfa etdi. Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabida ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi bo'lib ishlaydigan turmush o'rtog'im Malikaxon Haydarova bilan hamjihatlikda ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritdik.



Shu yilning may oyida Ichki ishlar vazirligi tomonidan tashkil etilgan «Namunali oila» ko'rik-tanlovining yakuniy bosqichida birinchi o'rinni qo'lga kiritib, vazirlik diplomi, 25 million so'm miqdoridagi pul mukofoti hamda Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan 5 million so'm va kitoblar jamlanmasi bilan taqdirlandik.

Yaqinda oilamizda yana bir quvonchli voqea yuz berdi. Yaratgan bizga shiringina qizaloq tuhfa etdi. Ulug' ajdodlarimizga hurmat ramzi sifatida chaqaloqqa Mohlaroyim deb ism qo'ydik.

Katta farzandim Asadbek Farg'ona shahridagi 9-maktabning 4-sinfida o'qiydi. Dars

mashg'ulotlaridan so'ng taekvando to'garagiga qatnaydi. Kelajakdagi orzusi – osoyishtalik posboni bo'lish. Bu yil u ham viloyat miqyosidagi qator musobaqalarda zafar quchdi.

Shunday ekan, yakuniga yetib borayotgan yildan minnatdor bo'lgan holda, kirib kelayotgan 2024-yilda ham oila a'zolarimiz bilan yangi yutuq va muvaffaqiyatlar sari dadil intilishda davom etamiz.

Kasbdoshlarimni yaqinlashib kelayotgan Yangi yil bayrami bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Akmaljon HAYDAROV,
Farg'ona shahar IIOFMB 1-sonli IIB
Navbatchilik qismi katta inspektor-
navbatchisi, mayor.

SIRDARYO VILOYATI

2023-yil men uchun ham omadli keldi. Yil davomida yurtga muhabbat, qadriyatlarimizga sadoqat, vatanparvarlik g'oyalarini o'zida mujassam etgan bir qancha ko'rik-tanlovlarda ishtirok etdim. «Nurli maskan» maxsus maktab-internatining xotin-qizlar kengashiga rahbarlik qildim.

«Diydor shirin» nomli kitobim nashrdan chiqib, o'quvchilar tomonidan iliq kutib olindi. Ushbu kitobim bilan birga «Ko'klam sog'inchi» nomli to'plamim brayl yozuvida chop etilib, respublika-mizning «Nurli maskan» maktab-internatlari o'quvchilariga taqdim etildi.



Ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, ularni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, yosh avlod vakillariga zamonaviy bilimlarni o'rgatish ishlari-da ichki ishlar organlari bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yganligim bois Ichki ishlar vazirining faxriy yorlig'i bilan mukofotlandim.

Shuningdek, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga munosib hissasini qo'shib kelayotgan, yuksak ma'naviyatli, oilada va farzandlar tarbiyasida ibrat bo'layotgan ayollarni qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish, munosib taqdirlash hamda bu boradagi ilg'or taj-

ribalarni ommalashtirish maqsadida o'tkazilgan «Yil ayoli» milliy ko'rik-tanlovining shahar va viloyat bosqichlarida faxrli o'rinlarni egallab, «Yilning eng yaxshi ijodkor ayoli» nominatsiyasida g'olib bo'ldim.

Ikki nafar farzandning baxtli onasiman. Nabiralarning sevimli buvijoniman. Kelayotgan yildan ham umidlarim katta. Yangi yilda ham mamlakatimizda tinchlik-osoyishtalik barqaror, muvaffaqiyatlarimiz bardavom bo'lsin!

Dildor SAYDALIYEVA,
Guliston tumanidagi
«Nurli maskan» maxsus maktab-
internati o'qituvchisi.



ВETERАНЫ – НАША ГОРДОСТЬ

НАСТАВНИК С БОЛЬШОЙ БУКВЫ



За плечами заслуженного наставника молодежи Республики Каракалпакстан, полковника в отставке Махаматдина Жарылкаганова более трех десятилетий службы в системе ОВД.

Родился М. Жарылкаганов в 1947 году в Караузякском районе Каракалпакстана. Рано лишившись родителей, воспитывался в детском доме в Чимбае.

– Когда окончил 8 классов, принял решение – буду учиться в Ташкенте, в Республиканской спортивной школе-интернате. С выбором не ошибся: наряду с получением среднего образования, усиленно занимался спортом, стал чемпионом республики по легкой атлетике, выполнил нормативы кандидата в мастера спорта, – вспоминает

ветеран. – Затем были годы обучения в институте физической культуры, срочная служба в Приморском крае. В органы внутренних дел был принят в 1973 году. Начиная с должности милиционера 5-го отдельного дивизиона тогда УВД Ташкента.

Присущая герою очерка неутомимость способствовала продвижению по службе. Перспективного сотрудника назначают командиром отделения, а затем взвода дивизиона. В 1974 году принимается решение назначить его заместителем командира отдельного

дивизиона милиции при УООП МВД Узбекистана по охране зданий государственных органов в столице. М. Жарылкаганов оправдал доверие – служил самоотверженно, проявляя требовательность к себе и подчиненным, оперативно принимал верные управленческие решения.

В 1983 году М. Жарылкаганову поручили возглавить отдел физической подготовки и спорта Узбекского республиканского совета «Динамо», а несколькими годами позже – отдел профессиональной подготовки СРЛС МВД. На этих ответственных должностях герой очерка вновь проявил лидерские качества, организаторские способности.

С 1993 года М. Жарылкаганов плодотворно работал в качестве заместителя председателя республиканского совета «Динамо» при МВД Узбекистана.

– Прикладывали максимум усилий к укреплению материально-технической базы общества, особенно в регионах. В тот период были построены новые стадионы, тир, другие спортивные объекты в Бухаре, Самарканде, Хорезме, Каракалпакстане, в областях Ферганской долины. Нашей задачей было развитие массового спорта среди сотрудников правоохранительных органов, воспитание

«динамовцев»-чемпионов, – отмечает ветеран.

За годы службы М. Жарылкаганов зарекомендовал себя как умелый руководитель, отличающийся исключительной работоспособностью. Не смотря на напряженный график, заочно окончил юридический факультет ТашГУ, подавая пример коллегам, принимал участие в соревнованиях, стал мастером спорта по стрельбе. При этом большое внимание уделял наставничеству, считая это неотъемлемой частью своей деятельности.

...На заслуженный отдых М. Жарылкаганов вышел в 2005 году. Но не в его характере сидеть без дела. В настоящее время он является заместителем председателя постоянно действующего арбитражного суда. Ведет большую общественную работу по пропаганде физической культуры и спорта, во взаимодействии с органами образования организует на базе школ спортивные секции. В рамках ветеранского движения принимает активное участие во встречах с сотрудниками территориальных и отраслевых подразделений, щедро делится опытом, накопленным годами.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.

ГОД, БОГАТЫЙ НА ПОБЕДЫ

ДЖИЗАКСКАЯ ОБЛАСТЬ

Среди учащихся Джизакского академического лицея МВД немало победителей и призеров республиканских и международных чемпионатов.

Дурдона Алиева – одна из таких одаренных спортсменок. Она обладательница более полусотни медалей разного достоинства. Нынешний год также стал для девушки успешным. На состоявшемся в столице международном турнире по тхэквондо с участием представителей 12 государств, она завоевала бронзовую медаль. А на чемпионате мира в Ташкенте Дурдона заняла второе место.

Учитывая достижения в спорте и учебе, согласно приказу министра внутренних дел в сентябре Д. Алиева была отмечена нагрудным знаком «За

успехи в учебе». Окрыленная признанием, сейчас она готовится принять участие на соискание Государственной премии имени Зулфии.

Учащийся данного лицея, Киличбек Султонмуродов, также достиг высоких спортивных результатов. Он является восьмикратным чемпионом

Узбекистана по узбекскому боевому искусству. Дважды становился победителем чемпионатов мира, поднимался на высшую ступень пьедестала почета на международном турнире. В апреле текущего года на кубке мира по боевым искусствам, состоявшемся в Казахстане, завоевал золотую медаль.

В декабре к его наградам добавилось «золото» международного турнира по боевым искусствам, состоявшегося в Чимкенте.

Соб. корр.



Г. ТАШКЕНТ

«Наше Солнышко» – так ласково и доброжелательно отзываются о старшем специалисте информационного мультимедийного центра ГУВД города Ташкента лейтенанте Дилафруз Киличевой.

Уходящий год оставил в памяти Дилафруз самые приятные воспоминания. Во-первых, она с отличием окончила заочное отделение Ташкентского архитектурно-строительного института, а во-вторых, в начале декабря получила звание лейтенанта.

Дилафруз Киличева работает с журналистами различных сайтов, на радио и телевидении, освещающая актуальные темы дня. Сейчас в эфире регулярно выходят три ее авторские передачи – «Хукукий баҳо» на телеканале «O'zbekiston 24», «Пойтахт ИИББ хабарлари» – на телеканале «Тошкент» и «Хиз-

матидан бахтини топанлар» на официальном сайте ГУВД столицы. Передачи стали популярными благодаря не только харизме автора и ведущей, но и интересным сюжетам.

У Д. Киличевой немало новых проектов, которые она собира-



ется осуществить в наступающем году. Заканчивает работу над документальным фильмом о трудных подростках и борьбе с наркотрафиком.

Соб. корр.



YUKSAK MUKOFOT SOHIBLARI

KASB TANLASHDA ADASHMAGANMAN

– deydi safdor Sobirjon Asanov

Yurt osoyishtaligi yo'lida kun-u tun faoliyat olib borishdek sharaflı kasbni tanlaganidan doimo faxrlanadigan Toshkent viloyati IIBB 2-mintaqaviy hududi patrul-post xizmati otryadi safdor xodimi, safdor Sobirjon Asanovning xizmatlari zoʻye ketmadi. U 25-oktabr – Ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan Prezidentimiz farmoniga muvofiq, «Sodiq xizmatlari uchun» medali bilan taqdirlandi.

Lavhamiz qahramonining otasi Jakay Asanov ichki ishlar organlarida turli lavozimlarda yigirma besh yildan ortiq vaqt mobaynida sadoqat bilan xizmat qilib, kapitan unvonida pensiyaga chiqqan. Sobirjonning akasi, iste'fodagi katta serjant Shavkat Asanov ham jazoni ijro etish tizimida xizmat qilgan.

– Sobirjonning yuksak mukofotga loyiq topilganidan behad quvondim, – deydi uning onasi Soliya Asanova. – Shunday o'g'lim borligidan g'ururlandim.

Kasbiga mehri baland osoyishtalik posboni har qanday holatda ham o'ziga topshirilgan vazifani astoydil bajarib kelmoqda. Shu boisdan ham u xizmat hududida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish hamda sodir etilganlarini «issiq izida» fosh etishda safdoshlariga namuna bo'layotir. Bundan tashqari, targ'ibot tadbirlari hamda boshqa sohaviy xizmatlar bilan hamkorlikda tashkil etiladigan tungi reydlarda ham muntazam ishtirok etmoqda.

– O'n olti yillik faoliyatim davomida ustozlarimdan o'rganganlarim muhim poydevor bo'lib xizmat qilmoqda, – deydi u. – Buning uchun ularga, ayniqsa, birinchi ustozim – podpolkovnik Muhiddin Shodiyevga alohida minnatdorlik bildiraman.



Turli bayram tadbirlari hamda xalq sayllari munosabati bilan hududda joylashgan madaniyat va istirohat bog'lari doimo odamlar bilan gavjum. Bunday paytlarda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda PPX xodimlarining xizmati muhim ahamiyat kasb etadi.

– Safdor Sobirjon Asanov ona Vataniga fidoyilik bilan xizmat qilib kelayotgan osoyishtalik posbonlaridan biri, – deydi viloyat IIBB 2-mintaqaviy hududi patrul-post xizmati otryadi komandiri, mayor Abduljalol Nurlibayev. – Yurt tinchligi uchun vijdonan xizmat qilishni sharaflı vazifa deb bilgan bu kabi xodimlarimiz bor ekan, hayotimiz doimo tinch, osmonimiz musaffo bo'laveradi.

Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.

YANGI YIL TILAKLARI

XIZMATIMGA YUKSAK BAHO



Ichki ishlar organlari zimmasidagi vazifalar doirasining nechog'lik keng ekanligi hech kimga sir emas. Ayniqsa, bugungi kunda profilaktika inspektorlarining mas'uliyati tobora oshib boryapti. Ularning o'z xizmat vazifalarini to'laqonli bajarishi jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishda juda muhim ahamiyatga ega. Bu esa biz kabi soha vakillarining kun-u tun biriktirilgan hududda bo'lishimizni taqozo qiladi. Shu bois ham aholi bilan mahalladosh va maslakdosh bo'lib, faollar bilan yelkama-yelka turib, xizmatni davom ettirib kelyapman.

2011-yil Shofirkon tumani IIB HPB profilaktika inspektori sifatida faoliyatimni boshlab, 2020-yildan hozirgi kungacha Peshku tumani HPB profilaktika katta inspektori lavozimida xizmat qilib kelyapman.

Menga biriktirilgan hudud «Quchoq» mahalla fuqarolar yig'ini bo'lib, hozirgi kunga qadar birorta ham jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi. Shu sababli respublika miqyosida «yashil» hudud toifasiga kiritilgan. Bundan tashqari, joriy

yilda qo'shni mahallalarda sodir etilgan to'rtta jinoyatni «issiq izida» fosh etishga hissa qo'shdim. Xizmat yillarim davomida 230 nafar huquqbuzar shaxs aniqlanib, qonuniy choralari ko'rildi. Ko'p yillik faoliyatim va kasbimga fidoyiligim sabab bo'lsa kerak, Ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan muddatidan oldin menga «podpolkovnik» maxsus unvoni berildi.

Avalambor, kamtarona xizmatlarim yuqori baholangani uchun

vazirlik rahbariyatdan behad minnatdorman. Qolaversa, yaqinlashib kelayotgan Yangi yil bayrami bilan barcha yurtdoshlarimni, shu jumladan, el xizmatiga kamarbasta bo'layotgan hamkasblarimni chin dildan muborakbod etaman. Yangi yil yangi O'zbekistonimiz uchun, uning har bir fuqarosi uchun omadli bo'lsin!

Aminjon SODIQOV,
Peshku tumani IIB HPB JXX
profilaktika katta inspektori,
podpolkovnik.

Minnatdorlik

TERGOVCHILARNING
TIYRAKLIGI TUFAYLIadolat qaror
topdi

Nohaq tuhmatdan Ollohning o'zi asrasin, deb bejiz aytishmas ekan. Oltmish yoshga kirib, ana shunday og'ir holga tushib qoldim.

Gap shundaki, muqaddam sudlangan bir fuqaro menga nisbatan yolg'on ko'rsatma berishi oqibatida bu holat ro'y berdi. Oqibatda menga nisbatan Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi. Jinoyat ishi Xiva tumani IIB huzuridagi tergov guruhiga topshirildi.

Olib borilgan surishtiruv va tergov harakatlari davomida da'vogarning da'vosi o'z tasdig'ini topmadi. Aksincha, o'zini soxta jabrlanuvchi qilib ko'rsatgan fuqaroning o'zi aybdor bo'lib chiqdi. U jinoyat ishlari bo'yicha Xiva shahar sudi tomonidan Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan aybdor, deb topilib, 2 yil muddatga ozodlikni cheklash jazosiga hukm qilindi. Menga yetkazilgan zarar to'liq qoplab berildi.

Xullas, Xiva tumani IIB huzuridagi tergov guruhi katta tergovchisi, mayor Jalolbek Bobojonov va guruh surishtiruvchisi, kapitan Jalolbek Jumaniyozovning sinchkov surishtiruv hamda tergov harakatlari tufayli adolat qaror topdi. Ular ichki ishlar organlari adolatni yuzaga chiqaradigan chinakam xalqchil tuzilмага aylanib borayotganligini amalda namoyon etdilar.

O'zim va oilam nomidan bu fidoyi xodimlarga samimiy minnatdorlik bildiraman. Ular doim xalqimizning hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lishsin!

Hamdam QURBONOV.
Xorazm viloyati.



YOSHLIKDAN OTAMGA HAVAS QILGANMIZ

— deydi iste'fodagi podpolkovnik Isroiljon Saidinovning o'g'illari

Farg'ona shahrida istiqomat qiluvchi Isroiljon akani hech ikkilanmay dunyodagi eng baxtli otalardan biri, deya ta'riflash mumkin. Chunki bugun uning uch azamat o'g'li ota kasbini munosib davom ettirib, padari buzrukvoriga rahmat olib kelyapti.

Rishton tumanidagi Qalaynav qishlog'ida tavallud topgan lavhamiz qahramoni bolalikdan ichki ishlar organi xodimi bo'lishni orzu qilardi. 1988-yida ezgu niyati amalga oshib, Farg'ona viloyati IIB huzuridagi Qo'riqlash boshqarmasiga xizmatga qabul qilindi. Keyinchalik Toshkent Oliy militsiya maktabida o'qib, ofitserlik lavozimida xizmatni davom ettirdi.

Uzoq yillar turli lavozimlarda xizmat qilib, boy amaliy tajriba to'plagan I. Saidinov Farg'ona tumani IIB boshlig'ining birinchi o'rinbosari hamda So'x va Oltiariq tumanlari IIB boshlig'i lavozimida samarali xizmat qilib, hurmat va ehtirom bilan pensiyaga kuzatildi.

— Bir yilgina keksalik gashtini surdim, xolos, — deydi faxriy. — Viloyat kasb-hunar ta'limi boshqarmasi mutasaddilari «Rahbarlikda katta tajribangiz bor, yoshlar bilan til topisha olasiz, ularning ta'lim-tarbiyasiga yordam bering», deya o'zim tug'ilib o'sgan Rishton tumani markazidagi 1-sonli kasb-hunar maktabiga ishga taklif qilishdi. Hamisha xalq xizmatida yurganligim bois uyda bekor o'tirishni o'zimga ep ko'rmay, bu

taklifni qabul qildim. Hozirgi kunda ushbu maktabda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimida ishlab kelyapman.

Isroiljon Saidinov turmush o'rtog'i Kumushxon aya bilan hamjihatlikda uch o'g'il va bir qizni voyaga yetkazdi. Uchala o'g'li ham bolalikdan ota kasbiga mehr qo'yib ulg'aydi. Oliy ta'lim muassasalarida o'qib, birin-ketin ichki ishlar organlari tizimiga xizmatga kirishdi.

To'ng'ich o'g'il — mayor Iskandar Saidinov ayni kunda Farg'ona shahar IIOFMB 3-sonli IIBda jinoyat qidiruv guruhi katta tezkor vakili. Kapitan Shayxislom Saidinov esa viloyat IIB Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati tashkiliy-muvofiqlashtirish guruhi bosh inspektori.

Kenjasi, katta leytenant Ismoiljon Saidinov Farg'ona shahar IIOFMB Terrorizmga qarshi kurashish bo'limi katta tezkor vakili bo'lib xizmat qilyapti.

— Dadam bizga birinchi ustoz va hamisha ibrat maktabi bo'lib kelgan, — deydi kapitan Shayxislom Saidinov. — Yoshligimizdan u kishining kiyinishi, yurish-turishi, fuqarolar



bilan muomalasidan o'rnak olib, shu kasbga mehr qo'yganmiz. Bugun ham xizmat jarayonida qandaydir muammoga duch kelsak, albatta, birinchi galda dadamdan maslahat so'raymiz. U kishi eng to'g'ri yo'lni ko'rsatishiga ishonamiz. Ota o'gitlariga tayanib ish ko'rganimiz uchun sira kam bo'lganimiz yo'q.

Nafsilamrini aytganda, 32 yil davomida el-yurt tinchligi yo'lida

sadoqat bilan xizmat qilib, o'ziga uch nafar munosib izdosh tarbiyalagan, bugun ham yoshlar tarbiyasi yo'lida javlon urib mehnat qilayotgan iste'fodagi podpolkovnik Isroiljon Saidinovni chindan ham eng baxtli ota va namunali oila boshlig'i, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Abduvosit SIDIQOV,
«Postda» muxbiri.

Farg'ona viloyati.

FAXRIYLAR — FAXRIMIZ

ASL SAODAT

Iste'fodagi kapitan, marhum Polvon Quvvatovni ko'pchilik sohaning chinakam fidoyi xodimi sifatida xotirlaydi. Qarshi shahar IIBda profilaktika inspektori lavozimida xizmat faoliyatini boshlagan P.Quvvatov keyinchalik Qarshi tumani IIBda profilaktika inspektori, Qarshi shahar IIB JQBda tezkor vakil lavozimlarida faoliyat yuritdi. Qariyb yigirma yetti yillik xizmat faoliyatidan so'ng, 1983-yilda pensiyaga kuzatildi.

Oiladagi to'qqiz nafar farzand orasida Sadriddin ota kasbga havas bilan ulg'aydi. O'rta maktabni tugatib, harbiy xizmatga otlandi. 1985–1987-yillarda Afg'onistonda baynalmilal jangchi sifatida xizmat qildi.

Armiyadan qaytgach, ichki ishlar organlariga xizmatga kirdi. Ilk faoliyatini Qarshi shahar IIB huzuridagi Qo'riqlash bo'limida oddiy militsionerlikdan boshladi. Hozirda iste'fodagi mayorlar Xolmurod Gulov va Ibodulla Husanovdan xizmatning o'ziga ma'lum bo'lmagan qirralarini o'rgandi. Ustozlaridan o'rganganlari, orttirgan bilim, ko'nikma va tajribalariga tayanib ish yuritishi bo'limda vzvod sardori, bo'linma



komandiri lavozimlarida ishlashiga puxta zamin hozirladi.

— Xizmat faoliyatimda Qo'riqlash bo'limining tezkor harakatlanuvchi guruhida ishlagan davrim men uchun alohida o'rin tutadi, — deydi iste'fodagi starshina Sadriddin Quvvatov. — Chunki bu davrda guruh tarkibida bevosita jinoyatchilarni qo'lga

olishda qatnashganman. Bundan tashqari, ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmat xodimlari bilan birgalikda jinoyatchilikning payini qirqish, sodir etilganlarini fosh etish ishiga imkon qadar hissa qo'shganman.

Sadriddin Quvvatov tizimda ko'p yillar samarali faoliyat yuritib, munosib shogirdlar tayyorladi. Iste'fodagi serjantlar Baxtiyor Xo'janov, Botir Norxo'rozovlar uni o'zlariga ustoz deb bilishadi.

Sadriddin akani, chin ma'noda, kasbidan saodat topgan inson deyish mumkin. Binobarin, u ham otasi singari zo'r hurmat-ehtirom bilan pensiyaga kuzatildi. Hozirgi kunda esa Qarshi tumanidagi «Taraqqiyot» mahallasi faoli sifatida turmush o'rtog'i Zulfiya opa bilan farzandlari ardog'ida, baxtiyorlikda umrguzaronlik qilmoqda.

Nevaralar orasida ota-bobosi kasbga qiziqish bilan ulg'ayayotganlar bor. Kelgusida bu oiladan yana osoyishtalik posbonlari yetishib chiqishiga shubha yo'q.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

РЕСПУБЛИКА КАРАКАЛПАКСТАН

ОПРЕДЕЛЕНЫ САМЫЕ АКТИВНЫЕ

Во Дворце искусств города Нукуса состоялся республиканский этап конкурса «Образцовый пункт правопорядка органов внутренних дел».

Выступивший министр внутренних дел Республики Каракалпакстан полковник Б. Торебеков подробно остановился на работе ведомства по обеспечению общественной безопасности, предупреждению преступлений и профилактике правонарушений.

Была особо отмечена деятельность по повышению социальной роли органов внутренних дел, установлению тесного сотрудничества с общественностью, проводимая на основе

махаллях, решаются проблемы граждан.

По итогам конкурса определены победители по ряду направлений работы. В номинации «Самый активный руководитель сектора» лучшим признан руководитель 1-го сектора Турткульского района Рустам Шамуратов. Инспектор профилактики Элликалинского РОВД капитан Рашид Атабаев стал победителем в номинации «Самый активный инспектор профилактики», «Самым



принципа «Все во имя чести и достоинства человека». Благодаря подобному подходу совместно с органами самоуправления граждан обеспечивается безопасная среда в

активным инспектором службы пробации» стал старший инспектор группы пробации Турткульского РОВД майор Бекзад Хидирниязов. Инспектор специального батальона

Управления безопасности дорожного движения рядовой Сардор Ортиков признан «Самым активным инспектором дорожно-патрульной службы», а рядовой Нурлибек Балтабаев «Самым активным инспектором

обеспечению гендерного равенства уделяется особое внимание, – говорит подполковник Айжамал Наменова. – Воплощая эти приоритеты в жизнь, добились определенных результатов. За минувшие 11 месяцев выданы 474 охранных ордера, предотвращен



патрульно-постовой службы». Старший инспектор по вопросам женщин УКД ОВД города Нукуса подполковник Айжамал Наменова победила в номинации «Самый активный инспектор по вопросам женщин», старший инспектор-психолог управления по городу Нукусу капитан Султамурат Сейтимбетов признан лучшим в номинации «Самый активный инспектор-психолог».

– В настоящее время в нашей стране защите прав и свобод женщин, повышению социально-политической активности соотечественниц,

распад 103 семей. В сотрудничестве с заинтересованными организациями социальным жильем обеспечены три женщины, решены вопросы их паспортизации.

На церемонии также определены победители в номинациях «Самый активный сход граждан», «Самый активный помощник хокима», «Самая активная активистка по вопросам женщин», «Самый активный молодежный лидер».

Хурзада РЕЙМКУЛОВА,
подполковник.

ДЖИЗАКСКАЯ ОБЛАСТЬ

В ЦЕНТРЕ ВНИМАНИЯ – НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИЕ

Инспекторы-психологи по вопросам несовершеннолетних ОПП СОБ Пахтакорского РОВД с целью предупреждения правонарушений проводят в 19 общеобразовательных и двух профессиональных школах района тестирования для определения психологического состояния учащихся.

По результатам тестов, определив круг подопечных, занимаются с ними, дают практические советы. Кроме того, объектом внимания являются 27 несовершеннолетних, состоящих на профилактическом учете, и их родители.

С целью выявления школьников, пропускающих занятия, проводятся рейды в образовательные учреждения. Совместно с администрацией школ изучаются причины, по которым несовершеннолетние игнорируют уроки, принимаются не-

обходимые меры. В текущем году выявлено 315 подростков, бесцельно

разгуливающих в ночное время суток. В центр оказания социально-право-

вой помощи несовершеннолетним направлены 15 учащихся.

Внесено 14 представлений в образовательные учреждения района с требованием устранить факторы, негативно влияющие на поведение учащихся. Хороший эффект приносит организация полезного досуга несовершеннолетних, приобщение их к спорту и здоровому образу жизни.

Соб. корр.



SARHISOB

SHARAFLI YO' LDA SOBITQADAMMIZ

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Bugungi kunda axborot olish va uni yetkazish, ta'sirchan jamoatchilik fikrini shakllantirish borasidagi raqobat keskin tus olib, hayot yangi talab va vazifalarni oldimizga qo'yimoqda. Bunday murakkab jarayonda IIV Birlashgan tahririyati jamoasi ham bir qadam oldinda yurish, mamlakatimizda va jahonda ro'y berayotgan eng dolzarb voqealarni zamonaviy uslub va ilg'or yondashuvlar orqali o'z mushtariylariga tezkor va xolis tarzda yetkazish, ularning chinakam ma'naviy-ma'rifiy hamrohiga aylanish yo'lida tinimsiz izlanmoqda.

Sa'y-harakatlarimiz samarasi o'laroq, 2023-yilda IIV Birlash-



Navoiy viloyati bo'yicha muxbiri Mahliyo Xolova «Harbiy-vatanparvarlik mavzusi eng yaxshi yoritilgan materiallar uchun» nominatsiyasida g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Namangan viloyati bo'yicha o'z muxbirimiz Gulchehra Buvamirzayeva

esa «Eng ulug', eng aziz» respublika ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida g'oliblar safidan o'rin oldi.

Tahririyat ijodiy jamoasi o'tayotgan yilda «Birlashgan tahririyat kutubxonasi» turkumi ostida navbatdagi «Yurtning jasur o'g'lonlari» va «Jasorat va buyuklik timsoli – ayol» nomli kitoblarni tayyorlab o'quvchilarga taqdim etdi.

Ma'lumki, bu yildan yurtimizdagi har bir tashkilot va muassasalarda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni targ'ib qilish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish hamda gender tenglikka erishish masalalariga jamoatchilik e'tiborini keng jalb etish maqsadida «Gender tenglik faoli» milliy tanlovi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi hamda Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan ushbu tanlovda munosib ishtirok etgan IIV Birlashgan tahririyati jamoasi ham «Gender tenglikni targ'ib qilishga qaratilgan eng yaxshi nashr» nominatsiyasida faxrli 2-o'rinni egalladi.

Tahririyat jamoasi kelgusi yilda ham mushtariylarimizga manzur bo'ladigan dolzarb mavzularni yoritib borishda davom etadi.

Yangi – 2024-yil barchamizga xayrli va barokatli kelsin. Yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik bardavom bo'lsin.

Bernora **SADIKOVA**,
polkovnik.

E'TIROF

BILIMDON MUSHTARIYLAR

Ilm ummon kabi cheksiz. Uni egallashga esa qiziqishlarimiz yetaklaydi. Inson qaysi yoshda bo'lishidan qat'i nazar, fikrini va bilimni doimo charxlab borishi kerak.

Aynan shu maqsadni ko'zlab tahririyat jamoasi tomonidan **t.me/postdarasmiy** telegram kanalimiz orqali muntazam ravishda jumboqli savollar, turli viktorinalar berib boriladi. An'anaga muvofiq, yil yakuni arafasida obunachilarimiz orasidan bilimdon o'quvchilar tanlab olindi.

Eng faol ishtirokchilardan biri **safdor Ulug'bek Qurbonov**

hozirda IIV huzuridagi JIED 6-MMM 2-sonli THT va QB qo'riqlash otryadi katta nazoratchisi lavozimida xizmat qiladi.

Shuningdek, barcha mantiqiy savollarga to'g'ri javob bergan, o'zining fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashib kelayotgan jonkuyar o'quvchilarimizdan yana biri iste'fodagi ofitser **Otabek Sharapov**

dir. 2021-yil harbiy xizmatni o'tash davomida olgan jarohati tufayli iste'foga chiqarilgan. Hozirda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida xalqaro munosabatlar yo'nalishining sirtqi ta'lim shaklida tahsil olmoqda.

Yana bir bilimdon, zukko o'quvchimiz Toshkent shahar Sergeli tumani IIOFMB HPB voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologi, leytenant **Farangiz Ergashov**dir.

«Oz-ozdan o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur», deydi ulug' mutafakkir bobomiz Mir Alisher Navoiy. Darhaqiqat, har kuni berilgan bitta savolga javob izlash asnosida o'qiysiz, izlanasiz. Natijada yil davomida bilimlaringizni mustahkamlab borgan bo'lasiz. Bizning maqsadimiz ham shu edi. Aziz bilimdonlar, kelayotgan yangi yil barchangizga omad olib kelsin!



gan tahririyati «Oltin qalam» XVII Milliy mukofoti uchun xalqaro tanlovining «Harbiy-vatanparvarlik mavzusi eng yaxshi yoritilgan materiallar uchun» rag'batlantiruvchi mukofotiga sazovor bo'ldi.

Shuningdek, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi tomonidan tashkil etilgan «Atirgul» tanlovining bu yilgi bosqichida tahririyatning



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

XIZMATDAN TASHQARIDA

SHA'N, MAS'ULIYAT VA MUVAFFAQIYAT

QVZda shov-shuv ko'targan «Patrul» jamoasi haqida

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Ma'lumot o'rnida ta'kidlash kerakki, shu paytgacha IIVdan biron bir jamoa QVZ tanlovining Oliy ligasida ishtirok etmagan edi. «Patrul» esa nafaqat ishtirok etdi, balki finalgacha bo'lgan mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi. «Postda – Ha nocy» gazetasi uchun «Patrul» jamoasi a'zolaridan ayrimlarini suhbatga tortib, ularning qaynoq fikrlarini tinglashga muvaffaq bo'ldik.

Jobir Shamsiddinov – jamoa sardori, IIV Qorovul qo'shinlari 7531-harbiy qismi 1-batalyoni vzvod komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari, leytenant:

– Avvalo, jamoa nomi haqida gapirmoqchiman. Dastlab «102»ni tanlasakmikan degan fikrlar bo'lgan. Keyin «Patrul» deb atashga qaror qildik. Buning boisi biz sahnada ham ichki ishlar organi xodimlari ekanligimiz, ushbu jarayonlar murakkab bo'lishiga qaramasdan, baribir, xizmatdaligimizni ifodalash maqsadida ramziy ma'no bo'lishi kerakligidir. Bir so'z bilan aytganda, IIV vakillari xoh sahnada, xoh boshqa joyda bo'lsin, qo'yilgan vazifalar a'lo darajada bajarilishi lozim.

QVZga qatnashishdan maqsad soha xodimlarining ijodiy tomonlama ham hech kimdan kam emasligini ko'rsatish, xalqimiz orasida obro'sini oshirish. Kelajakda IIVda yosh izdoshlarimiz uchun QVZ ligalarini tashkil qilib, ushbu yo'nalish rivojiga munosib hissa qo'shish niyatimiz bor.

Nurlan Bektursinov – jamoa a'zosi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri bo'yicha IIOFMB 3-son IIB huquqbuzarliklar profilaktikasi guruhi profilaktika inspektori, kapitan:

– Sohaga begona bo'lmagan, O'zbekistonning turli hududlaridan kelgan iqtidorlar saralanib, Toshkentda jamlanishdi. Boshida bir-birimizni hatto tanimas edik. Bar-

chamizning ichimizda «Tomoshabinlarga chiqishlarimiz yoqarmikan, sahna ko'rinishlarimiz orqali ularni kuldira olamizmi o'zi?» degan hadik bor edi. Allohga ming shukrki, tomoshabinlar juda yaxshi qabul qilishdi. Hakamlar hay'ati yuqori ballar qo'ydi. Natijada bosqichma-bosqich o'zimizga bo'lgan ishonch ortib boraverdi.

Hazillarimizning hammasi oila davrasida bemalol namoyish etishga mos, bachkana, uyatsiz yumorlardan xoli bo'lishiga kelishib olgandik. Negaki, biz Ichki ishlar vazirligi sharafigi himoya qilayotgandik. Nomimiz, kasbimiz, pogonimiz hamda burchimizga munosib. Buning mas'uliyati, albatta, yengil bo'lmaydi. Hazillarda tarbiyaviy ahamiyatga alohida e'tibor qaratdik.

Maqsuda Usmonova – jamoa a'zosi, Toshkent shahar IIBB PPX brigadasi otryad komandirining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, podpolkovnik:

– Ba'zilar Javohir Zokirov, Uchqun Tillayev, Akmal Mirzo, Davron Fayziyev, Abdulla Qurbonovlar «Patrul»da chiqish qilgani hisobiga jamoa g'oliblar safidan o'rin egalaganini aytmoqda. Lekin ustoz



san'atkorlar, shou-biznes yulduzlari yoki taniqli shaxslar bilan birga rol ijro etish, hazillar qilish ko'rik-tanlov nizomida ko'rsatilgandi. Shuning uchun raqobatchilarimiz ham Botir Muhammadxo'jayev, Farhod Abdullayev, Farrux Zokirov, Mirzabek Xolmedov, Sanjar Shodiyev, Durдона Qurbonova, Bahodir Jalolov kabi yorqin qiyofalarni o'zlari bilan olib chiqishdi. Aytmoqchimanki, bu bora-da barchaga teng imkoniyat berildi. Qolaversa, rejamizdagi ayrim san'at vakillarining vaqti bo'lmaganligi, chet ellarda ijodiy safarlarda yurganligi va boshqa ko'plab sabablar bizga qiyinchilik tug'dirdi. Ular bilan chiqish qilishga mo'ljallangan ssenariylar amalga oshmagach, ishtiyoqimiz so'ngan lahzalar ham bo'ldi. Baribir, og'ir vaziyatlardan chiqib ketishga muvaffaq bo'ldik.

Abror Bekmirzayev – jamoa a'zosi, Toshkent shahar IIBB Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati yoshlar bilan ishlash guruhi katta inspektori, leytenant:

– Finalgacha bo'lgan yo'l oson kechmadi. Tahrir jarayonlaridagi asosli e'tirozlarga ko'ra, ko'pgina hazillarimizni butkul qayta yozishimizga to'g'ri keldi. Tan olamiz, boshida asabiylashdik. Ammo hammasi sinov ekanligini anglagan holda tushkunlikka tushmadik. Aksincha, undan ham yaxshiroq g'oyalarni o'ylab topishga erishdik. Albatta, har qanday katta g'alaba faqat kurash bilangina qo'lga kiritiladi.

Jamoamizning qolganlardan ajralib turadigan farqi – ixtisoslashuvi bo'ldi. Ya'ni, biz hazillarimizning deyarli barchasini ichki ishlar organlari

xodimlari faoliyatida kuzatiladigan voqealarni hajviylashtirib, syujetlar orqali muxlislarga havola etdik. Bu qaysidir ma'noda boshqalar bizning chiqishlarimizdan namunalari o'lasligiga zamin yaratishidan tashqari, sohamizga bo'lgan mehr va sadoqatimizni ham ko'rsatdi. Xizmat jarayonlarida yuz beradigan voqealarni oddiy tilda, tushunarli tarzda auditoriyaga yetkaza olish esa mahorat bilan bog'liq bo'lgan alohida jarayon. Ba'zan tong sahargacha repetitsiya qilishga to'g'ri keldi. O'sha kezlari ovqatlanishga ham vaqtimizni qizg'anardik. Jamoada soatlab ijodiy bahs, tortishuvlar bo'lib ketardi.

Zumrad Qo'chqorova – jamoa a'zosi, IIV Akademiyasi Ma'naviyat va ma'rifat markazi katta mutaxassisi, kapitan:

– Vazirlik rahbariyatiga chuqur minnatdorlik bildiramiz. Kamchiliklarimiz ular tomonidan tezkorlik bilan bartaraf etilishi, har tomonlama qo'llab-quvvatlanganimiz shaxtimizga shaxt, g'ayratimizga g'ayrat qo'shdi. Ilgari ham ko'p bor turli ko'rik-tanlovlarda qatnashganmiz, bevosita tashkilotchi sifatida o'tkazganmiz, kursantlarni tayyorlaganmiz. Lekin QVZdagi bu chiqishlarimiz haqida hayajonsiz gapirishning imkoniyati yo'q. Bilasiz, ne-ne aziz, tabarruk insonlarning qadami yetgan «Xalqlar do'stligi» san'at saroyida «Patrul, Patrul!» degan hayqiriqlar yangrab turishining o'zi katta baxt aslida. Finalgacha bora olgan barcha jamoalarni g'olib deb atash mumkin. G'oliblar ichida kuchli uchtalikda turishning esa o'z-gacha zavqi bo'larkan.

O'z muxbirimiz Abror POYONOV yozib oldi.



ORAMIZDAGI FIDOYI AYOLLAR

BAXTIGA KO'Z TEGMASIN

Jamiyatimizda ayollar bugun har jabhada fidoyilik bilan mehnat qilayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Ichki ishlar organlarida ham ularning safi kengayib bormoqda.

Lavhamiz qahramoni Nodira Yesamuratova ota-onasiga niyatini aytganida, ular bu kasb ayollar uchun oson emasligini, xizmat vazifasidan ortib oila-ro'zg'or yumushlarini eplashda ancha qiynalishini tushuntirishdi. Shunga qaramay u so'zida qat'iy turib oldi.

IIV Akademiyasida ta'lim olayotgan chog'larida ichki ishlar organlarining aynan tezkor qidiruv xizmati bo'yicha amaliyot o'tadi. 2011-yilda Navoiy viloyati IIB JQBda ilk xizmat faoliyatini boshladi.

Birinchi marotaba fosh etgan jinoyati hamon yodida. U Navoiy shahrining Ibn Sino ko'chasida yashaydigan 35 yoshli Mohira (ismi o'zgartirildi) sodir etgan jinoyati uchun jazo o'tab qaytganiga ko'p bo'lmasdan, yosh qizlarni chet davlatlarga daromadli ishga jo'natishi haqida gap tarqatganidan xabar topdi. Surishtiruv harakatlari chog'ida besh nafar qiz unga ishonib hujjatlarini topshirganini aniqladi.

Shu tariqa ular odam savdosi qurboni bo'lishdan saqlab qolindi. Mohira esa jinoiy qilmishiga yarasha qonunda belgilangan javobgarlikka tortildi.

To'rt farzandni voyaga yetkazgan Sherdon aka va Asaloy opa kenja qiziga kelgan sovcilarga Nodiraning kasbi nechog'lik mashaqqatli ekanligi, umr yo'ldoshi uni har tomonlama qo'llab-quvvatlasagina turmushga uzatishlarini aytishdi. Nodiraning baxti bor ekan. Boisi, turmush o'rtog'i unga tog'day tayanch bo'ldi. Hozirda podpolkovnik N. Yesamuratova uch qizning mehribon onasi.

– Qizlarimni ham jamiyat uchun foyda keltiradigan, bilimli insonlar etib tarbiyalashga harakat qilaman. Toki ular To'maris, Zebuniso, Mohlaroyim kabi ajdodlariga munosib farzand bo'lishsin, – deydi podpolkovnik Nodira Yesamuratova.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

INTILISH — PARVOZGA QANOT



Biz yashayotgan jamiyatda huquqiy savodxonligi yuqori bo'lgan kishi hech qachon kam bo'lmaydi. Negaki, bunday inson hayotda shaxs sifatida o'zining huquqlari va erkinliklarini, burch va majburiyatlarini yaxshi anglagan holda harakat qiladi. IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti To'rtinchi mintaqaviy hududi 9-sonli tergov hibsxonasi yuridik ta'minlash guruhi katta yuriskonsulti, leytenant Javlonbek Jolq'oshev sohada faoliyat boshlaganiga hali ko'p bo'lmagan. Lekin qisqa davr ichida bu haqiqatga ko'p bora ishonch hosil qildi.

U huquqiy maslahatlar berish, normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy ekspertizadan o'tkazish orqali tergov hibsxonasi faoliyatida qonun ustuvorligini ta'minlashga hissa qo'shib kelayotir. Bundan tashqari, nafaqat xodimlarning, balki qamoqqa olingan shaxslar va mahkumlarning ham huquqiy bilimlarini oshirishga ko'maklashmoqda.

– Qonunchilikda zamon talabidan kelib chiqib tez-tez yangiliklar bo'lib turadi, – deydi Javlonbek Jolq'oshev. – Bu o'zgarishlardan doim xabardorlik – bugungi kun talabidir. Shu

bois tergov hibsxonasi shaxsiy tarkibi bilan o'quv mashg'ulotlari olib boramiz va ularga qonunchilikdagi yangiliklarning mazmun-mohiyatini yetkazamiz.

Faoliyatim davomida qamoqqa olingan shaxslar bilan ham muloqot o'tkazib turaman. Ularga qo'yilayotgan ayblovlardan qonunchilikdagi tartib-qoidalar haqida tushunchalar beraman. Afsuski, so'nggi vaqtlarda poraxo'rlik, o'zlashtirish hamda firibgarlik bilan bog'liq jinoyatlar tez-tez sodir etilyapti. Bunga ba'zida fuqarolar qonunchilikni yaxshi tushunmagan holda qo'l urib qo'yayotgani achinarli hol.

Javlonbek – kitobsevar xodim. U sohasiga oid adabiyotlardan tashqari, badiiy asarlar mutolaasini ham xush ko'radi. Xususan, Abdulhamid Cho'lpon, Pirmqul Qodirov, Chingiz Aytmatovning asarlarini sevib o'qiydi. Ularda hayotning, inson ruhiy olamining badiiy jihatdan mohirona aks ettirilganidan zavqlanadi, ilgari surilgan g'oyalar haqida mulohaza yuritishni yoqtiradi. Qahramonimiz inson o'qish, intilishdan to'xtasa, bir joyda qotib qolishi, taraqqiyotdan orqada qolishi mumkin deb hisoblaydi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSİ

JADIDLAR: MILLIY O'ZLIK, ISTIQLOL VA DAVLATCHILIK G'OYALARI

Mamlakatimizda aynan shu mavzuda nufuzli tadbir o'tkazilgani va unda hukumat vakillari, tarixchi olimlar, adabiyotshunoslar, xalqaro tashkilotlar rahbarlari va vakillari, shuningdek, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Vengriya, AQSH, Germaniya, Niderlandiya, Shvetsiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlardan kelgan taniqli akademik va ekspertlar ishtirok etgani ham o'tgan asr boshlarida shakllanib, nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun musulmon olami va turkiy dunyo tarixida chuqur iz qoldirgan jadidchilik harakatining ahamiyati naqadar bemisl bo'lganini ko'rsatadi.

Ma'lumki, XIX asr oxirlaridan ma'rifatparvarlik oqimi sifatida paydo bo'lgan jadidchilik harakati XX asr boshlaridan e'tiboran o'zining tadrijiy rivojlanish bosqichida yangi bir davrga kirdi. Bu davrda jadidchilik o'z oldiga keng islohotchilik maqsadlarini qo'ygan ijtimoiy-siyosiy harakat darajasiga ko'tarildi.

Turkiston taraqqiyparvarlari merosini o'rganishning muhim jihati shundaki, ular bundan yuz yillar muqaddam yurt mustaqilligi va yosh avlodni ma'rifatlil qilish masalasini olg'a surgan edilar. Jumladan, jadidlar o'lkani taraqqiyotga erishuvini bilimli yoshlar qo'lida, deb bilganlar va ularni rivojlangan mamlakatlarga ta'lim olish uchun yuborish, xorijiy tillarni o'rganish, zamonaviy ilm-fan va texnika bilimlarini egallash kabi masalalarni ko'targanlar.

Jadidchilik harakati vakillarining ilmiy va ma'naviy merosini o'rganish bugungi kunda shuning uchun ham dolzarbki, bu harakat vakillari istiqlolimiz uchun o'sha davrdayoq kurash boshlaganlar. Avvalboshda ma'rifat sohasida faoliyat ko'rsatgan jadidlar asta-sekin ijtimoiy taraqqiyot kurashchilari sifatida maydonga chiqdilar.

Jadidchilik dastlab madaniy-ma'rifiy oqim sifatida paydo bo'lganligi tabiiy, albatta. Chunki ilg'or musulmon ziyolilari ijtimoiy va mustamlakachilik zulmining asosiy sabablarini zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan bexabarlikdan va maorif ishlari-dagi qo'liqlikdan izladilar. Shu sababli, ular mavjud ijtimoiy muammolarni hal etishning yagona yo'li ta'lim islohoti, deb qaradilar va ma'rifatparvarlik g'oyalari asosida yosh avlodni tarbiyalashga asosiy e'tibor berdilar. Yangi usul maktablari, kutubxonalar ochdilar, darslik, o'quv qo'llanmalari yozdilar va

nashr ettirdilar. Ayni paytda ular inson huquqlari, milliy, diniy, iqtisodiy erkinliklar kafolatlangan, huquqiy-demokratik milliy davlatchilikning nazariy asoslarini yaratishga harakat qildilar.

Shu o'rinda savol tug'iladi: nega bu o'lkada o'sha yillari ma'rifatchilik harakati har qachongidan ham kuchayib ketdi? Negaki, chor Rossiyasi asoratiga tushib qolib, butkul tanazzulga yuz tutgan o'lkani uyg'otishga, xalqning ko'zini ochishga faqat ma'rifat orqaligina erishish mumkin edi. Biroq ana shunday ezgu maqsadni o'z oldiga qo'ygan jasoratli bobolarimiz hayoti va faoliyati davomida ko'plab taqiq va ta'qib-larga uchradilar. Eng yomoni, bu ularning o'zlariga ham, yozgan asarlariga ham, hattoki yaqinlariga ham bir xilda qo'llanildi. Ular olamdan o'tganiga bir necha o'n yillar bo'lsa-da, bobomeros asarlarini o'qib-o'rganish, ularning milliy o'zlikni anglash, istiqlol va davlatchilik g'oyalaridan bahramand bo'lish imkonsiz edi.

Turkistonning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayotida va falsafiy tafakkurida muhim ahamiyatga molik bo'lgan ma'rifatparvarlik-jadidchilikni xolisona o'rganish zaruriyati uning «taqiqlangan mavzu» sirasiga kirganligi bilan izohlanaadi. Bunday fikr bildirishning sababi shundaki, jadidlar tomonidan Turkistonning ravnaqini ko'zlab olg'a surilgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, milliy istiqlol g'oyalari sho'ro tuzumi mafkurasi «qolip»ga sig'mas edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng xalqimizning ijtimoiy-falsafiy, adabiy-badiiy tafakkuri tarixida alohida mavqega ega bo'lgan jadidchilikni o'rganishga katta ahamiyat berildi. Jadidchilikning paydo bo'lish sabablari, tadrijiy rivojla-

va merosini yangicha tafakkur asosida o'rganish hamda targ'ib etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Xususan, yurtimizda har yili 31-avgust – Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni sifatida keng nishonlanadi.

«Shahidlar xotirasi» yod-



nish jarayoni, undagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, milliy istiqlol g'oyalarini tadqiq qilishga oid ilmiy izlanishlar olib borildi. Shularning samarasi o'laroq, ilmiy asarlar, to'plamlar paydo bo'ldi, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bugungi kunda O'zbekistonda inson qadri ulug'lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlar jadid bobolarimizning ezgu g'oya va dasturlariga har jihatdan uyg'un va hamohangdir. Shu bois xalqimiz ozodligi va Vatanimiz ravnaqi yo'lida aziz jonlarini fido qilgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati

gorlik majmuasi va jamoat fondi, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlardagi hududiy bo'limlari qatorida, endilikda Buxoro shahridagi tarixiy maskanda «Jadidchilik tarixi» muzeyi tashkil etilmoqda.

Tarixning bu murakkab davriga oid ilmiy va badiiy asarlar bilan bir qatorda, «Tarixning noma'lum sahifalari», «Qatag'on qurbonlari» nomli ko'p jildli xotira kitoblari nashr etilmoqda. Badiiy va hujjatli filmlar, ko'rsatuvlar tayyorlanib, namoyish qilinmoqda. Xalqaro konferensiyalar, ko'rgazmalar va davra suhbatlari, xotira kechalari, seminarlar muntazam o'tkazilmoqda.

Jafokash xalqimizga milliy o'zligini anglatish, istiqlolga erishish va davlatchilik yaratish yo'lida jon fido qilgan atoqli ma'rifatparvarlarimiz hukumatimizning yuksak muhofotlari bilan taqdirlanmoqda. Istiqlol istab, yurt qayg'usida qatag'on qurboni bo'lgan bobolarimizning aziz nomlari bilan ataladigan yodgorlik majmualari, ta'lim muassasalari, muzeylar, bog' va xiyobonlar barpo etilmoqda.

Shu asnoda keyingi yillarda O'zbekiston Oliy sudi tomonidan mingdan ziyod mustabid tuzum qatag'oniga uchragan vatandoshlarimiz nomi oqlangan tarixiy adolatni tiklash yo'lida yangi qadam bo'lganligini alohida ta'kidlash joiz. Bu ezgu ishlarning davomi sifatida yurtimizda har yili avgust oyini «Qatag'on qurbonlarini yod etish oyi» sifatida o'tkazish, fidoyi vatandoshlarimiz va ularning avlodlari yashagan va yashayotgan xonadonlarga yodgorlik lavhalari o'rnatish, ularning vorislari hamda yaqin kishilariga hurmat-e'tibor ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanayotgani ham quvonarlidir.

Kelgusida har bir mahalla fuqarolar yig'ini binosida «Qatag'on qurbonlari xotirasi burchaklari» va «Mahalla xotira kitoblari»ni tashkil etish, har yili kamida 100 nafar qatag'on qurboni hamda jadid bobolarimiz hayoti va faoliyatini aks ettiradigan to'plam tayyorlash rejalashtirilgani yuqorida aytib o'tilgan xayrli ishlarning mantiqiy davomidir.

Xulosa o'rinda aytmoqchimizki, Turkiston jadidlari tomonidan o'z davrida ko'tarilgan muammolar, bugungi kunimiz uchun ham o'zining dolzarbligini saqlab kelmoqda. Zero, davlatimiz rahbari o'rinli ta'kidlaganidek,

«buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg'a surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'rtasida bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrashga doimo da'vat etib turadi».

Temir QURBONOV
tayyorladi.



MAHALLA YASHIL TOIFADA

Profilaktika inspektori, leytenant Shavkat Ibrohimov Paxtakor tumani-ning 4 ming nafardan ortiq kishi istiqomat qiladigan «Suvonobod» mahalla fuqarolar yig'ini tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashga mas'ul. Hududda «xonadonbay» usulida olib borilayotgan amaliy ishlar samarasi o'laroq, fuqarolarni qiynayotgan muammolarni hal qilish choralari ko'rilayotir. Chunonchi, joriy yilning o'tgan davrida fuqarolar yig'ini raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisiga 82 ta xulosa kiritdi.



Umuman olganda, mahalla «beshligi» tomonidan joriy yilda 270 kishi ishga joylandi, 38 nafar fuqaroga yer ajratildi. Yana 270 kishining o'zini o'zi band qilishi choralari ko'rildi. 22 ta ehtiyojmand oilaning a'zolari subsidiya asosida ish qurollari bilan ta'minlandi. 110 kishi «Har bir oila – tadbirkor» dasturi asosida imtiyozli kredit oldi.

Shuningdek, «Suvonobod»da yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda. Jumladan, ularning 12 nafarining oliy o'quv yurti kontrakt to'lovlari, 2 nafarining safarbarlik chaqiruv rezervi, 4 nafarining kasb-hunar kurslarida o'qish xarajatlari qoplab berildi. Bundan tashqari, 2 nafar yoshga mehnat qurollari uchun subsidiya, 7 nafariga esa moddiy yordam ajratildi.

Tuman IIB JXX HPG 114/1-tayanch punkti profilaktika inspektori, leytenant Shavkat Ibrohimov profilaktik tadbirlarni amalga oshirish borasida ham faollik ko'rsatmoqda. Xususan, mahalla hududining asosiy to'rtta ko'chasiga kuzatuv kameralari o'rnatilishiga erishdi. Profilaktik hisobda turgan 35 nafar, muqaddam sudlangan 4 nafar shaxs bilan muntazam ravishda profilaktik ishlar olib bormoqda.

Fuqarolarning huquqiy madaniyati hamda qonunbuzarliklarga nisbatan sergakligini oshirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarini ham tez-tez uyushtiryapti. Natijada yakunlanayotgan yilda «Suvonobod»da birorta ham jinoyat sodir bo'lmadi.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

JUR'ATNING JUR'ATI

jinoyatlarni fosh etishda qo'l kelmoqda

G'alati tushlar ko'rgan Abdumalik (ism-shariflar o'zgartirildi)ning yarim kechasi uyqusi qochdi. O'rnidan tura solib, ayvon tomon yugurdi. Borsa, ko'z qorachig'idek asrab, parvarishlab kelayotgan g'unajini bog'langan joyida yo'q. Darrov o'zini qo'lga olib, «102» raqamiga qo'ng'iroq qildi. Ko'p o'tmay, Peshku tumani IIB tergov-tezkor guruhi voqea joyiga yetib keldi.

Xodimlar o'z yo'nalishlari bo'yicha ishga kirishdi. Erta- lab tuman hududida molbozor bo'lganligi bois jinoyat qidiruv bo'limi tezkor vakillari bozorga jalb qilindi. Jabrlanuvchi ham ular bilan bozorga boradigan bo'ldi.

Olib borilgan tezkor-qidiruv va surishtiruv tadbirlari natijasida bozorning chekkarog'ida g'unajin ushlab turgan kishi leytenant Jur'at Ismatovning e'tiborini tortdi. Chunki u g'unajinni juda arzon narxga sotayotgan edi. Leytenant she-

rigiga imo qilib, jabrlanuvchini olib kelishini buyurdi. O'zi esa gumon qilinuvchini joyidan jildirmaslik choralari ko'rди. Hartugul, savdo pishsa ham, hisob-kitob anchaga cho'zildi. Bu orada jabrlanuvchi yetib keldi.

Leytenant J. Ismatov sotuvchiga o'zini tanishtirib, xaridor bilan birga chekkaroqqa chiqishni so'radi. Jabrlanuvchiga ko'zi tushgach, nima qilarini bilmay qolgan F.S. g'unajinni o'g'irlaganini tan oldi. Shu tariqa, jinoyat «issiq izida» ochildi...

Jur'at maktab davridanoq izquvarlarga oid kitoblarni sevib mutolaa qilar, katta bo'lsam, men ham ulardek bo'lsam, deb orzu qilardi. Shu bois fanlardan a'lo baholarga o'qib, puxta tayyorgarlik ko'rди. O'rta maktabni tugatgach, IIV Akademiyasiga o'qishga kirdi. 2022-yilda diplomni qo'lga olgach, o'zi tug'ilib o'sgan Peshku tumani IIB JQB tezkor vakili lavozimida xizmat qila boshladi.

Shundan so'ng Jur'atning hayotida qizg'in va mas'uliyatli davr boshlandi. Sabr-bardoshliligi, tirishqoqligi, izlanuvchanligi tufayli u tez orada zimmasidagi vazifalarni o'zlashtirishga kirishdi. Kasbning sir-asrorlarini puxta egallashida ustoz — kapitan A'zam Boboyevning xizmati katta bo'ldi.

Har qanday sohada muvaffaqiyat kaliti bilim va mahoratni boyitib borish, yangiliklarga intilishda ekanini yaxshi anglagan J. Ismatov o'rganishdan, izlanishdan charchamaydi. U har bir jinoyatni puxta o'rganib, dalil-isbotlar bilan fosh etishga harakat qilmoqda. Xizmat faoliyati davomida o'ndan ortiq o'g'rilik, giyohvandlik bilan bog'liq va boshqa turdagi jinoyatlarning ochilishiga hissa qo'shdi. Shuningdek, 7 nafar qidiruvdagi shaxslarni aniqladi, 5 nafar bedarak yo'qolgan shaxsni topishga yordamlashdi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

YANGI YIL TILAKLARI

QALBDA POK NIYAT ILA

Yangi yilga qadam qo'yarkanmiz, o'tgan umrimizni sarhisob qilish uchun ortga nazar tashlaymiz. Erishilgan yutuqlardan quvonsak, xatolarimizdan xulosalar chiqaramiz. Shu tariqa, kelgusi yilga rejalar tuzamiz.

O'tib borayotgan 2023-yil biz uchun omadli keldi. Chunki aprel oyida tuman IIB xodimlari uchun barcha sharoitlarga ega yangi bino qurilib, foydalanishga topshirildi. Hozirda xodimlarimiz shinam va yorug' xonalarda xizmat vazifasini ado etishmoqda. Yangi mini stadion va trenajyor zalida sport bilan shug'ullanishyapti. Yana 400 dan ortiq qiziqarli adabiyotlarga boy mo'jaz kutubxona bizning ixtiyorimizda. Bundan juda xursandmiz.

Biz ichki ishlar organlari xodimlariga yaratilayotgan sharoitlar va imkoniyatlardan behad mamnunmiz.

Qalblarimiz pok niyatlarga to'lib turgan ushbu quvonchli lahzalarda barcha hamkasblarimni kirib kelajak yangi yil bilan chin dildan muborakbod etaman. 2024-yil barchamiz uchun barokatli, yutuqlarga boy bo'lishini tilayman.

Zafar BOYQOBILOV,
Bandixon tumani IIB HPB tashkiliy-tahlil guruhi katta inspektori, kapitan.

Surxondaryo viloyati.



УРОК ДУХОВНОСТИ И ПРОСВЕЩЕНИЯ

ДЖАДИДЫ: НАЦИОНАЛЬНОЕ САМОСОЗНАНИЕ,
ИДЕИ НЕЗАВИСИМОСТИ И ГОСУДАРСТВЕННОСТИ

Среди ярких представителей движения центральноазиатского джадидизма конца XIX – начала XX века были Махмудходжа Бехбуди, Мунавваркори Абдурашидхонов, Абдулла Авлони, Абдурауф Фитрат, Абдулла Кадыри, Абдулхамид Чулпан, Исохон Ибрат и др. В сложный период геополитического надлома они выступили с идеей национального возрождения.

Джадиды открывали школы, театры, библиотеки, издательства, ратовали за развитие науки, призывали к реформированию государственного управления, судебной-правовой системы с точки зрения построения светского, прогрессивного и демократического общества. Их девизом были слова «Единство в языке, мыслях, действиях».

Просветители внесли выдающийся вклад в создание национальной системы образования, в дело воспитания по-новому мыслящего поколения. Считая, что судьбу Родины решает молодежь, они предпринимали решительные шаги к увеличению количества новометодных школ («усули жаид»). Сеть школ открывает в Ташкенте в 1901–1904 гг. Мунавваркори Абдурашидхонов. Наиболее известной из них была «Намуна». В 1903 г. близ Самарканда, в селах Халвойи и Ражабами, а в 1905 г. – в селе Кафтархона такие школы были организованы Бехбуди.

Огромный вклад в дело просвещения соотечественников Абдуллы Авлони. При его личном участии в 1908 г. были созданы школы в махалле Миробод Ташкента, а затем в махалле Дегрез, где у учащихся формировалось мировоззрение, свободное от консерватизма и фанатизма. Здесь был установлен твердый учебный год с экзаменами, внедрена классно-урочная система. Ученики изучали литературу, иностранные языки, историю, географию, природоведение, арифметику, хандаса (геометрию), хикмат (мудрость).

В целях обеспечения обучающихся канцелярскими принадлежностями, одеждой, едой, оказания поддержки талантливой молодежи в 1909 г. в Ташкенте создается благотворительное общество «Жамияти хайрия».

Джадиды активно издавали учебники и руководства для преподавания.



Мунавваркори Абдурашидхонов выпустил буквари «Адиби аввал» («Первый наставник»), «Адиби соний» («Второй наставник»), учебник по географии «Ер юзи», пособие «Усули ҳисаб» («Арифметика»).

Бехбуди был подготовлен ряд книг, в числе которых «Мунтахаби жуғрофияи умумий» – «кисқача умумий жуғрофия» («Краткая общая география»), «Китоб-ул-атфол» – «Болалар учун китоб» («Книга для детей») и др.

В период с 1909 по 1917 годы Авлони создал свыше десяти пособий и книг. В их числе «Биринчи муаллим» («Первый учитель»), «Иккинчи муаллим» («Второй учитель»), «Тарих» («История») и др. Вершина научно-педагогического наследия просветителя – книга «Туркий гулистон ёхуд ахлоқ» («Тюркский цветник или мораль»), написанная в

тех «Адабиёт қоидалари» («Правила литературы»), «Аруз ҳақида» («Об арузе»), публикации о жизни и творчестве Алишера Навои, Бабура, Машраба.

В этот период джадиды пишут проблемные статьи, фельетоны, выпускают периодическую. Знаменательна деятельность Бехбуди, который издавал журнал «Ойина»

лучших традиций восточной литературы. Автор акцентирует внимание на теме любви к Родине, которая должна выражаться в реальных делах во имя ее независимости и процветания, необходимости сохранения чистоты родного языка.

Активно работали джадиды в области литературоведения, публицистики, истории. Перу Абдурауфа Фитрата принадлежат оригинальные научные труды, в числе ко-

торых «Зеркало», газету «Самарканд» в целях распространения в обществе прогрессивных идей.

Большое внимание джадиды уделяли развитию театра. Огромным успехом среди населения пользовалась драма Бехбуди «Падаркуш» («Отцеубийца»). В 1914 г. Мунавваркори Абдурашидхонов, принимая участие в открытии первого сезона национального театра в Ташкенте, подчеркнул, что

«Реформы по построению в Новом Узбекистане справедливого, свободного и процветающего общества, благополучной жизни, истинно народного государства, где превыше всего – достоинство человека, его интересы, полностью созвучны благородным идеям и программам джадидов».

Шавкат МИРЗИЁЕВ.

«сцена театра подобна зеркальному дому, тот, кто в него входит, видит свое хорошее и плохое, свои ошибки, недостатки и поучается».

В Узбекистане уделяется особое внимание глубокому изучению и систематизации наследия джадидов. Расширяется доступ к архивным документам, связанным с их многогранной деятельностью, осуществляются целевые исследования, издаются научные и художественные произведения, книги «Неизвестные страницы истории». Как логическое продолжение этой работы в историческом центре Бухары создается Музей истории джадидизма, готовится к выпуску новая газета «Жадид».

Важным событием в постижении идей джадидизма стало недавнее проведение в Ташкенте международной конференции «Джадиды: национальное самосознание, идеи независимости и государственности», собравшей авторитетных отечественных и зарубежных экспертов. В приветственном слове участникам форума глава государства подчеркнул, что наследие джадидов Туркестана «служит сегодня для нас прочным фундаментом строительства Нового Узбекистана и Третьего Ренессанса». Изучение и популяризация выдающейся деятельности наших предков-просветителей, их наследия, которое и сегодня не утратило ценности и значения, – важнейшая задача.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.



FIDOYI XODIMLAR

TIRISHMAGAN ULG'AYMAS

SURXONDARYO VILOYATI

– 2014-yili endigina xizmatni boshlaganimda menga tarbiyalash uchun xizmat itini berishdi. Rosti, unga buyruqlarni bajartira olishimga uncha ko'zim yetmasdi. Hamkasblarimning xizmat itlari bajaradigan harakatlarini ko'rib esa hayratga tushardim. Shunda xizmatdagi sherigim bilan til topisha olsangina yaxshi natijalarga erishishimni tushunib yetgach, bu ishga qat'iyat bilan kirishdim, – deya eslaydi viloyat IIB JXX JTSB Kinologiya bo'linmasi 1-kinologiya guruhi kichik inspektor-kinologi, safdor Muhridin Xolboyev.

O'z maqsadidan og'ishmay harakat qilgan qahramonimiz yillar o'tib, xizmat sirlarini o'rgatgan ustozlaridan-da yaxshiroq ko'rsatkichlarni qayd etdi. Axir, ustozidan o'zmagan shogird shogirdmi?

Ayni paytda Jarqo'rg'on tumani hududida xizmat vazifasini olib borayotgan safdor o'ziga birlashtirilgan «Sezr» laqabli xizmat iti bilan ko'plab jinoyatlarni fosh etishga muvaffaq bo'ldi.

...Jarqo'rg'on tumani hududida o'g'rilik sodir etilgani to'g'risida xabar keldi. Tezkor guruh voqea joyiga yetib bordi. Guruh vakili bo'lgan safdor Muhridin Xolboyev «Sezr»ni

hid olishga imladi. Sezgir jonivor to'g'ri qo'shni hovli tomonga boshlab bordi. Tezkor guruh a'zolari hamsoyani so'roqlab, tintuv o'tkazishganida o'g'irlangan buyumlar va pullar shu yerda ekani oydinlashdi.

Faoliyati davomida M.Xolboyev ko'plab qidiruvdagi shaxslarni ushlashda ham jonbozlik ko'rsatdi. Qolaversa, 2022-yili kinologlar o'rtasida o'tkazilgan ko'pkurash musobaqasining respublika bosqichida 3-o'rinni, joriy yilning noyabr oyida bo'lib o'tgan «A'lochi kinolog» ko'rik-tanlovida 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

– Shu kasbim ortidan hayotda qat'iyatli bo'lishni o'rgandim, – deydi u. – Yana yaxshi tarbiyachi sifatida shakllandim va ishda ham, oilada ham, jamiyatda ham, avvalo, o'zim boshqalarga o'rnak bo'lishim kerakligini angladim. Bu esa meni o'z ustimda yanada ishlashga undadi.

Tirishmagan odam maqsadiga yetolmaydi. Maqsadi sari olg'a intilishdan charchamaydigan qahramonimiz, eng muhimi, o'z kasbini yaxshi ko'radi va bu xizmatda erishayotgan yutuqlarining asosiy omili bo'layotir.

O'z muxbirimiz.



XORAZM VILOYATI



Qish fasli kirib kelishi bilan fuqarolarning is gazidan zaharlanish holatlari, afsuski, birmuncha oshadi. Aksariyat hollarda fojia bilan yakun topadigan bunday noxush hodisalar kishini jiddiy xavotirga soladi.

Joriy yilning 13-dekabr kuni tungi soat taxminan 4:40larda Urganch shahar 4-daha 17/2-uyda yashovchi Sohiba Yomitboeva shahar IIOFMB HPB profilaktika inspektoriga qo'ng'iroq qilib, o'zi yashayotgan uyning pastki qavatida ayol kishining yordam so'rab qichqirgan ovozi eshitganini aytadi. Hudud profilaktika inspektorlari – mayor Mansurbek Madrahimov, kapitan Temurbek Saidov zudlik bilan aytilgan manzilga yetib borishadi va xonadon eshigi qo'ng'irog'ini bosishadi. Ammo ichkaridan hech kimning ovozi eshitilmaydi. Vaziyatning jiddiyligini his

qilgan profilaktika inspektorlari tezda Favqulodda vaziyatlar vazirligi viloyat boshqarmasiga xabar berishadi. Zudlik bilan manzilga yetib kelgan qutqaruvchilar bir zumda xonadon eshigini ochishadi.

Sohaviy xizmat xodimlari ichkariga kirishganida, is gazidan zaharlangan ikki fuqaro behush holda yotganini ko'rishadi va ularga zudlik bilan birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatishadi. Amalga oshirilgan tezkor sa'y-harakatlar natijasida fuqarolarning hayoti saqlab qolindi. Surishtiruvlar davomida ushbu fuqarolar Urganch davlat universiteti talabalari ekani ma'lum bo'ldi.

Fuqarolar hayotini saqlab qolishdagi fidoyiligi uchun profilaktika inspektorlari – mayor M.Madrahimov va kapitan T.Saidov viloyat IIB hamda Urganch davlat universiteti rahbariyati tomonidan munosib rag'batlantirildi.

O'z muxbirimiz.

ANDIJON VILOYATI

YPX 1-safarbarlik otryadi inspektori, safdor Akmaljon Dadaboyev xizmat faoliyatini patrul-post xizmati batalyonida safdor xodim sifatida boshlab, keyinchalik viloyat IIB Jinoyat qidiruv boshqarmasida tezkor xodim bo'lib ishlagan. Akmaljon hozirgi egallab turgan lavozimida bir yildan buyon xizmat qilmoqda.

– Navbatchilikka chiqqanda oldinda nimalar kutayotganini bilmaysan. Yilning ma'lum vaqtlarida yo'ldagi vaziyat yaxshiroq bo'ladi, deb ham aytib bo'lmaydi. Qishda baxtsiz hodisalar yer muzlashi tufayli sodir bo'lsa, kuzda YTH kunning kechki mahali ko'proq uchraydi. Yo'llarda o'rnatilgan videokameralar qoidabuzarlarga qarshi kurashda yordam berishi tabiiy, lekin bunda YPX



inspektorlari faoliyati ham muhim ahamiyatga ega. Kamera rulni mast holatda boshqarayotgan yoki yo'lining qarama-qarshi tarafiga chiqib ketgan «o'pkasini qo'ltiqlagan» haydovchini qo'lga tushira olmaydi, – deydi safdor A. Dadaboyev. – Kasb sirlarini egallashimda ustozim – mayor Xayrullo Abdullayevning hissasi katta. U o'zining hayot va xizmat tajribasi bilan o'rtoqlashib, haydovchilar bilan qanday munosabatda bo'lishni va ekstremal sharoitlarda ishlash ko'nikmalarini o'rgatib kelmoqda. Safimizda shunday fidoyi ustozlar ko'payaversin.

O'z muxbirimiz.





SADOQAT TUYG'USI BILAN

Keyingi yillarda Oqoltin tumanining qiyofasi o'zgarib, yangi korxonalar, ko'p qavatli uylar, obod mahallalar barpo etildi. Odamlar ijtimoiy adolat tamoyili yuzaga chiqayotganiga, huquq va erkinliklari ishonchli himoya qilinayotganiga amin bo'lishmoqda. Bunda boshqa huquqni muhofaza qilish idoralari qatori, tuman IIB tomonidan olib borilayotgan ishlar alohida tahsinga loyiq.

Tuman IIB Ekspert-kriminalistika bo'limida doim ish qizg'in kechadi. Tergov-tezkor guruhi tarkibida jinoyat joyiga borish, hodisaga oid dalillarni to'plash katta mahorat, bilim va malakani taqozo etadi. EKB katta eksperti, mayor Obidjon Nishonov ana shunday malakali xodimlardan. Uning sa'y-harakatlari evaziga ko'plab jinoyatlar tezkorlik bilan ochilgan.

Tuman IIB Navbatchilik qismiga ma'lumotlar kelishi, qo'ng'iroqlar bir zum tinmaydi. Navbatchilik qismi katta inspektori, katta leytenant Dilshodjon Safarov xizmat vaqti qanday o'tib ketganini bilmay ham qoladi.

Tuman IIB Probatsiya guruhi nazoratida 159 nafar shaxs mavjud. Guruh katta inspektori, kapitan Abrorjon Shaybekov nazorat ostidagi shaxslarning ijtimoiy rehabilitatsiyasiga ko'maklashish, belgilangan jazo choralari rioya etilishini nazorat qilishda jonbozlik ko'rsatayotir. E'tiborlisi, dekabrning



Mayor Obidjon Nishonov.

dastlabki kunlarida probatsiya nazoratidagi 4 nafar shaxs ishga joylashtirildi. Ular endilikda o'z oilasini ta'minlash imkoniyatiga ega. Lekin davlat organlarining qo'llab-quvvatlashi, berilgan imkoniyatlarga qaramay, belgilangan tartib-intizom qoidalariga rioya etmaydigan shaxslar ham uchrab turadi.

Tuman IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limi odamlar bilan doim gavjum. Lekin keksalar, nogironlar o'z fuqarolik hujjatlarini almashtirish uchun bu yerga kelish imkoniga ega emas. «Andijon» mahallasida yashovchi Abduhoshim Bahridinov ana shunday shaxslardan. Sakson yoshni qarshilayotgan otaxonning fuqarolik pasporti amal qilish muddati tugay deb qolgan. Bo'lim boshlig'i, katta leytenant Istam Hasanov uning xonadonida bo'lib, shu joyning o'zida xizmat ko'rsatdi. Abduhoshim ota va uning 75 yoshli rafiqasining biometrik ma'lumotlari bazaga joylandi. Shu kunning o'zida nuroniylarga ID-kartalar taqdim etildi.

BILMAGANNI BILGAN YAXSHI

«AFV» TO'G'RIMI YOKI «AVF»?

Kundalik hayotimiz va faoliyatimizda ko'p qo'llaniladigan shunday so'zlar borki, aksariyatimiz ularni yozishda xatoga yo'l qo'yamiz. Sababi, ba'zi so'zlar talaffuzga, aytilishiga ko'ra emas, qoidaga binoan yoziladi. Masalan, kundalik muloqotda «avf» deb ayt-sak-da, yozganimizda «afv» tarzida yozamiz.

Quyida aytilishi va yozilishi bir-biridan farq qiladigan ayrim so'zlarning to'g'ri va noto'g'ri yozilish shakllarini e'tiboringizga havola qilamiz.

Noto'g'ri	To'g'ri
✗ fidoiy	✓ fidoyi
✗ muvafaqqiyat	✓ muvaffaqiyat
✗ tayziq	✓ tazyiq
✗ so'ngi soniya	✓ so'nggisoniya
✗ yil so'nggida	✓ yil so'ngida
✗ poyafzal	✓ poyabzal
✗ mutoala	✓ mutolaa
✗ asqotmoq	✓ asqatmoq
✗ na'muna	✓ namuna
✗ tadbiq	✓ tatbiq
✗ talofat	✓ talafot
✗ taqazo	✓ taqozo
✗ ta'qiq	✓ taqiq
✗ avf	✓ afv
✗ to'yana	✓ to'yona



Kapitan Abrorjon Shaybekov.



Katta leytenant Dilshodjon Safarov.



Katta leytenant Istam Hasanov.

Muxtasar aytganda, Oqoltin tumani IIB tomonidan olib borilayotgan ishlar alohida e'tirofga loyiq. Osoyish-talikni ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan har bir ezgu amal uchun ular doim elning duosida.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.



▶ БУХАРСКАЯ ОБЛАСТЬ

СЛУЖБА ПО ПРИЗВАНИЮ

Сотрудники кинологического отдела УООП СОБ УВД Бухарской области обладают высокой квалификацией. Умело используя четвероногих помощников, вносят достойный вклад в раскрытие преступлений по горячим следам.

В настоящее время подразделение располагает почти пятидесятью служебными собаками. Это породистые немецкие, восточноевропейские овчарки, лабрадоры и спаниели. Их обучают обнаружению следа преступника, поиску наркотических средств, взрывчатых веществ. К дрессировке привлекают самых опытных кинологов. Созданы

необходимые условия для проведения занятий, оборудованы специальные площадки, пункт ветеринарного осмотра, вольеры для реабилитации животных. Ветеринар-фельдшер Акмал Тураев непосредственно отвечает за самочувствие питомцев.

– В текущем году наши сотрудники вместе со своими питомцами обеспечили

раскрытие около двухсот преступлений, совершенных на территории области, – говорит командир 4-й группы старший сержант Бобир Шукуров. – Акмал Тураев проводит ветеринарные осмотры, вакцинации, следит за рационом питания, принимает меры по профилак-

дел в 2001 году. Прошел курсы повышения квалификации при центре кинологии в Ташкенте. Его наставником был опытный специалист Комил Хамроев, ныне майор запаса.

За успехи в службе младший сержант Акмал Тураев отмечен нагрудным знаком МВД



тике инфекционных заболеваний.

В подразделении А.Тураев оказался не случайно. Выпускник Ромитанского сельскохозяйственного техникума. Начал службу в органах внутренних

«Кинолог I-й категории». Указом Президента Республики Узбекистан он удостоен медали «Шухрат».

Мирзокул АХАДОВ,
соб. корр.

▶ ФЕРГАНСКАЯ ОБЛАСТЬ

ПРЕДНОВОГОДНИЙ СОХ: ОБЕСПЕЧИТЬ ПРАЗДНИЧНЫЙ НАСТРОЙ

Для инспектирования хода проводимой работы по обеспечению правопорядка, общественной безопасности в период новогодних мероприятий, предупреждению преступности и правонарушений в Сохском районе побывало руководство службы общественной безопасности УВД Ферганской области.

Осмотрены рынки, объекты обслуживания, площадь, где установлена новогодняя елка, проведены беседы с населением. В ходе изучения положения дел даны указания руководителям подразделений правоохранительных органов района по оптимальному распределению сил и средств в дни празднования Нового года.

Состоялось посещение отдаленной махалли Хушёр, граничащей с соседней Кыргызской

Республикой. Руководство ознакомилось с деятельностью инспектора профилактики лейтенанта Зарифжона Рахматжонова. В беседе с активом махалли проанализированы мероприятия, осуществ-

ленные согласно программам «Благоустроенная махалля» и «Безопасная махалля».

Проверено также состояние зданий отдела внутренних дел Сохского района, изолятора вре-

менного содержания, отряда оперативного реагирования. Осмотрены условия несения службы, материально-техническое обеспечение. Должностным лицам даны необходимые указания.

Известно, что в настоящее время с целью обеспечения общественной безопасности проводятся специальные мероприятия в рамках «Ударных 40 дней». Они эффективно организованы и в Сохском районе.

Подчеркнута важность эффективной организации профилактических мероприятий, ночного дежурства, необходимость повышения бдительности.

Абдувосит СИДИКОВ,
соб. корр.



14-YANVAR – VATAN HIMOYACHILARI KUNI

IZLANISHLARNING TOTLI MEVASI



IIV Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash qo'shinlariga qarashli Naman-gan shahridagi 7254-harbiy qism komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari, podpolkovnik Bobirjon Munisovning zimmasidagi mas'uliyatli vazifalar talaygina. U barchasiga ulgurishga harakat qiladi.

Lavhamiz qahramoni harbiy xizmatchilarning ma'naviyatini yuk-saltirish, bilim saviyasini oshirish maqsadida turli seminarlar, davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil etadi. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni ham mazmunli, ta'sirchan o'tkazish choralari ko'radi. Toki shaxsiy tarkib nafaqat dam olsin, balki Vatan himoyachilarining ruhiy va ma'naviy dunyosi ham boyisin.

Bobirjon Munisov ommaviy ax-borot vositalari bilan ham yaqindan hamkorlik qiladi. Joriy yil davomida «O'zbekiston-24», «Yoshlar» «Mahalla» «Muloqot» telekanallarida hamda Namangan viloyati televideniyesida harbiy qism faoliyati keng yoritib borildi.

– Harbiy qismimiz zamonaviy kutubxonaga ega. Ayni paytda ushbu ziyo maskanining kitob fon-

di 2200 tani tashkil etadi, – deydi podpolkovnik Bobirjon Munisov.

– Harbiy xizmatchilarimiz bo'sh paytlarida bu yerda o'zbek va jahon adabiyoti namunalarini va boshqa yo'nalishlardagi kitoblarni mutolaa qilishadi, davriy nashrlar bilan ta-nishishadi. Namangan shahrining Davlatobod tumanidagi «Yangi O'z-bekiston – yoshlar ziyo maskani» kutubxonasi ham harbiy qismimizga

yaqin joyda joylashgan. Haftaning juma kunida harbiy xizmatchilari-miz mazkur maskanga borib, kitob o'qishlari mumkin.

Shaxsiy tarkibdan xizmat faoli-yatida uyushqoqlik, tashabbuskor-lik, qonuniylik va harbiy intizomga qat'iy rioya etish talab qilinadi. Jamoada sog'lom ma'naviy-ax-loqiy muhitni qaror toptirish ham muvaffaqiyatlar kaliti hisoblanadi. Podpolkovnik Bobirjon Munisov har bir harbiy xizmatchining o'y-tash-vishi, orzu-umidlari, oilaviy sharo-i-tini yaxshi biladi, muammolarini hal etishda ko'maklashadi.

Ana shu izlanishlarning, sa'y-ha-rakatlarning mevasi o'laroq, u joriy yilning oktabr oyida IIV harbiy tu-zilmalariga qarashli harbiy qismlar komandirlarining tarbiyaviy va maf-kuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari o'rtasida o'tkazilgan «Eng yaxshi ma'naviy-ma'rifiy ishlar targ'ibot-chisi» ko'rik-tanlovida faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

– Bunday yuksak natijani qo'l-ga kiritish o'z-o'zidan bo'lmaydi, – deydi harbiy qism komandiri, podpolkovnik Umidjon Ahmedov. – Ushbu muvaffaqiyat ortida podpol-kovnik Bobirjon Munisovning fido-yiligi, munosib xizmatlari yotibdi. Qolaversa, bu jamoamizning ham yutug'idir.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.



Muhammad YUSUF,
O'zbekiston xalq shoiri

YANGI YIL
KECHASI

Ko'ngil ma'yus tortdi yilning so'ngida,
Bilmam, nimang bilan sehlading, qor.
Bugun kuppa-kunduz ko'zim o'ngida,
Yana bir yoshimni o'g'irlading, qor.
Qirquinchi qasimga o'taymi endi,
Kechagi yoshligim ertakmi endi?

Bahorim yetgudek qo'lim uzatsam,
Yetolmay dilimni ne deb yupatsam.
Laylakqor, azizim, g'alat bayram bu –
Kulib kuzatsammi, yig'lab kuzatsam...
Dardim jim ichimga yutaymi endi,
Kechagi yoshligim ertakmi endi?

So'rsang, sevinchimdan o'kinchim ko'proq,
Sendan-da kumushroq sochimdagi oq.
Yilim kelmay turib, yilim ketmoqda,
Ko'zda tabassum-u kiprikda titroq.
Men ham sal shoshdim-da, qaytaymi endi,
Kechagi yoshligim ertakmi endi?

Yangi yil,
Kelaver qanday kelsang ham,
Kimlar yetdi senga, kimlar yetmadi.
Sen yangi yo'ldoshsan, sen yangi hamdam,
Yo'qlab kelganingni o'zi bir bayram.
Qulog'ingga bir gap aytaymi, endi,
Kechagi yoshligim ertakmi, endi...

RASSOM XANDASI



Husan Sodiqov chizgan rasm.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

▶ IKKINCHI ISTE'DOD

SERQIRRA
IJODKOR

Ibrohim Yusupov o'n olti yil Xorazm viloyati ichki ishlar organlarida turli lavozimlarda yurtimiz osoyishtaligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashishda samarali xizmat qildi.



Mayor unvoni bilan pensiyaga chiqqan lavhamiz qahramoni to'qqiz yil viloyat Soliq boshqarmasida, o'n bir yil Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish hududiy boshqarmasida faoliyatini davom ettirdi. Ayni kunda u O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi viloyat hududiy boshqarmasi qoshidagi «Urganch adolat nuri» advokatlik byurosiga rahbarlik qilmoqda.

Ibrohim Yusupov bo'sh vaqtlarida badiiy ijod bilan shug'ullanib, «Osmon to'lsin qushlarga», «Bir dunyo sevinch», «Yaxshi niyat», «Yurtim haqida qo'shiq», «Mardu maydon o'g'lonlar», «Bo'ri yotog'idagi qotillik», «Qing'ir ishning qiyig'i» kabi o'nlab she'riy va nasriy kitoblarni o'quvchilar e'tiboriga havola etgan.

U O'zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasi hamda Xalqaro Turon yozuvchilar uyushmasining a'zosi.

Badiiy ijod bilan shug'ullanish hamma-ga ham nasib etavermaydigan noyob xislat. Bu ilohiy qobiliyat kishini ona yurt, go'zal tabiat, mehr-muhabbat, sevgi va vafoning betakror bo'stonlari sari yetaklaydi. Unga beg'ubor go'zallik, chin sog'inch hislarini hadya etadi. Yaratganning ana shunday

inoiyati serqirra ijodkor, iste'fodagi mayor Ibrohim Yusupovning ham qalbidan joy olgan. Uning bir-biridan mazmunli, jozibador she'rlari, hikoyalari, maqolalari viloyat hamda respublikamizda chop etilayotgan gazeta va jurnallarda muntazam yoritib borilmoqda.

– Yoshligimdan kitob mutolaa qilishni xush ko'rardim, – deydi lavhamiz qahramoni. – Shundan bo'lsa kerak, elni ulug'lash, yurtni sharaflashga bo'lgan ishtiyoq asta-sekin she'rga aylanib, nazm bo'stoniga qadam qo'ydim. Yozayotgan she'rlarim mushtariylarga ko'tarinki kayfiyat hadya etolsa, men uchun bundan ortiqroq baxt yo'q.

Ibrohim akaning ijodi bilan tanisharkan-miz, uning she'rlarida tinchlik va osoyishtalikning naqadar ulug' ne'mat ekanligini ifoda etuvchi jo'shqinlik borligini his etamiz. Ona Vatan, sevgi va vafo, muhabbatni ulug'lab bitilgan she'rlarida uning xalqimizga, O'zbekistonga bo'lgan sadoqati yaqqol sezilib turadi.

Xudoybergan JABBOV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

KAM
BO'LMAYSAN

Tuhmat qilma bировga,
Jondan to'yib ketsang ham.
Ol, yukini garovga,
Yo'lda nochor ko'rgan dam.
Kam bo'lmaysan hech qachon.

Havolanma lahza-on,
Doim izzat, nafsing bil.
Do'st-u, yorga berib jon,
Barchasini hurmat qil.
Kam bo'lmaysan hech qachon.

Ota-onang g'animat,
Hurmatin joyiga qo'y.
Qilma, aslo malomat,
Bo'lsin desang katta to'y.
Kam bo'lmaysan hech qachon.

Vaqt degani beshafqat,
Hamma narsa o'tkinchi.
Qilma, ishingdan minnat,
Doim bo'lgan, bilguvchi.
Kam bo'lmaysan hech qachon.

Jahling chiqsa – aqling yo'q,
Ne qilaring bilmaysan.
Aytilgan so'z misli o'q,
Ushlab qolib turmaysan.
Kam bo'lmaysan hech qachon.

ONASI BOR
ODAMNING

Yurib turar har ishi,
Boshida yo'q tashvishi,
Egilmaydi gardishi,
Otasi bor odamning,
Onasi bor odamning.

Tonglar otsa botmaydi,
Tomda shomdek qotmaydi,
Behuda gap topmaydi,
Otasi bor odamning,
Onasi bor odamning.

G'am-tashvishi bo'lmaydi,
Yolg'iz qolib turmaydi,
Hech azobga qolmaydi,
Otasi bor odamning,
Onasi bor odamning.

Turmushlari farovon,
Hamma unga mehribon,
Aslo bo'lmas g'alayon,
Otasi bor odamning,
Onasi bor odamning.

Ertasiga bor ishonch,
Sira qolmas qorni och,
Lahzalari zo'r quvonch,
Otasi bor odamning,
Onasi bor odamning.

Son-sanoqsiz do'sti bor,
Uyida har kun alyor,
Dil tubida yo'q g'ubor,
Otasi bor odamning,
Onasi bor odamning.

Gul-u chaman bog'lari,
Ko'kka yetar qo'llari,
Doim ochiq yo'llari,
Otasi bor odamning,
Onasi bor odamning.

ADOLAT YO'LIDA

Adolat yo'lida jonimiz fido,
Mustaqil, hur elning bizlar farzandi.
Quzg'unga chang solgan burgutmiz go'yo,
Dovyurak pahlavon, mardlarning mardi.

Qayda bo'lsa johil, shumniyat girdob,
Qing'ir qilmishlarin aylarmiz oshkor.
Eldoshlar qalbini doimo hushlab,
Ezgu niyatlarni tilaymiz ming bor.

Adolat yo'lida bo'lmas halovat,
Osonmi, bir qilni qirq yorib ko'rmoq?
Ko'ksimiz qalqondir, sertashvish xizmat,
Matonat mulkini qilarmiz bayroq.

Ming turfa ofatga duchor bo'lsak-da,
Po'latdek mustahkam tartib-intizom.
Farzandlik burchimiz oqlab hamisha,
Cheksizdir muhabbat Vatanga mudom.

Musaffo osmonda porlab quyoshdek,
Elu yurt ishonchi qalblarda in'om.
Jinoyat bag'rini tilsak shamshirdek,
O'zbek Xolmslarin tan olar olam!

BURCH

Baxtiyorman, Vatanim menga
Posbonim, deb bildirdi ishonch.
O'tsa umrim xizmatda senga,
Shudir tengsiz saodat, quvonch.

Qo'limda bir parcha qog'ozmas,
Yuksak burchim, e'tiqodim bu.
Xalqim desa, mard, qo'li tolmas,
Yurtim mehri qalbimda mangu.

Vatan, ishonchingni oqlayman,
Oppoq tonging, tiniq osmoning,
Qorachig'im kabi saqlayman,
Sodiq senga o'g'ling – posboning!

VAQT

Balki, borar manzili yiroq,
Qudrati zo'r, tinmay shoshadi.
Suron solib, mavjlanib har chog',
Qirg'oqlardan to'lib toshadi.

Hech birovdan ruxsat so'ramas,
Hadik nima, bilmaydi aslo.
Erkalanib, shafqat ham qilmas,
Ketib borar, to'xtamas, illo.

OTA DEGAN NOM

Dunyoda buyukdir ota degan nom,
Suyansang tog' bo'lar go'yo qoshingda.
Qay mahal bexosdan dilga qo'nsa g'am,
Ota parvonadir mudom boshingda.

Behuda og'ritma uning qalbini,
Baxillik g'alvasi ko'tarmasin bosh.
Otalar qadriga yetsang har qachon,
Nur sochar yo'lingda misli bir quyosh.

Zebu ziynatlardan kechsang-da, biroq,
Farzandlik mehridan bo'lmagil judo.
Otani e'zozla, chunki azaldan,
Otang rozi ekan, rozidir Xudo!

Buyukdir, dunyoda ota degan nom...

Ibrohim YUSUPOV.

СЫРДАРЬИНСКАЯ ОБЛАСТЬ

АКТ ГУМАНИЗМА

В честь дня Конституции согласно Указу Президента страны помилованы 334 осужденных.

Среди раскаявшихся и вставших на путь исправления 18 граждан иностранных государств, 23 женщины, 15 мужчин старше 60 лет и 88 лиц, участвовавших в деятельности запрещенных организаций.

Из числа помилованных 34 человека полностью освобождены от отбывания основного наказания, 249 лиц освобождено от отбывания наказания условно-досрочно, назначенное в отношении 6 лиц наказание заменено более мягким. Кроме того, сокращены сроки наказания в виде лишения свободы, назначенные в отношении 45 человек.

Среди помилованных есть четыре жителя Сырдарьинской области, твердо вставших на путь исправления. Благодаря Указу

главы государства они получили возможность вернуться в семьи, изменить свою жизнь в лучшую сторону. В их числе отец пятерых детей Исломбек Нуьмонов.

– Осознал вину и искренне раскаиваюсь в содеянном, – говорит Исломбек. – Будучи в местах не столь отдаленных понял, что значит свобода. Поэтому старался вести себя примерно, приносить, насколько это можно в моем положении, пользу обществу. Спасибо за предоставленный шанс восстановить свою честь в глазах близких и родных.

Сардорбек Солиев – еще один из сырдарьинцев, помилованных главой государства. Ему 24 года. Был осужден за кражу. В 2021 году уголовным судом города Янгьера Сардорбек был приговорен к ограничению свободы на два года и семь месяцев. Контроль за исполнением наказания



был возложен на группу пробации Янгьерского ГОВД. Неукоснительно соблюдал указанные правила, проявил законопослушность. В результате С. Солиева досрочно освободили от наказания.

С бывшими осужденными встретились хоким Сырдарьинской области Акмалжон Махмудалиев и начальник областного УВД полковник Санджар Джабаров. Приняты меры для их скорейшей социализации в общество. В

частности Исломбека Нуьмонова трудоустроили в ООО «Мираброр Шермухаммад». Всем четверым предоставили финансовую помощь. Решено также оказать содействие в налаживании предпринимательства, получении для этого кредита. Из числа старейшин махалли нашлись те, кто взял добровольное шефство над ними.

Абдурахмон МУСТАФОКУЛОВ,
соб. корр.

САМАРКАНДСКАЯ ОБЛАСТЬ

ВЫЕЗДНОЙ ПРИЕМ –
ПОВОД РАССКАЗАТЬ О НАБОЛЕВШЕМ

На протяжении последних десяти дней руководство УВД Самаркандской области ежедневно проводит выездные приемы. Очередной прямой диалог с населением прошел в Джамбайском районе.

Еще до начала приема прошла церемония вручения ID-карт молодым людям, впервые получающим паспорт. Этот

мановой, которая на протяжении 28 лет не могла получить гражданство. С 1995 года после окончания Пенджикентского пе-

как лицо без гражданства.

Примечательно то, что в этот раз на прием записались не только жители Джамбая, но и ближайших районов, города Самарканда.

Во время приемов стало очевидно, что в большинстве случаев люди обращаются из одного органа

водители многих ключевых систем.

В ходе приема проявилось наличие определенных проблем, связанных с правовой грамотностью граждан. Некоторые люди, не зная о направлении деятельности того или иного органа, обращаются не в те инстанции. На приеме были

образования, коммунальной сферы. Многие из них направлены в суды и другие инстанции.

Кроме того, целью выездных приемов является осуществление контроля за выполнением поручений главы государства в части решения наиболее актуальных вопросов, связанных с социально-



день стал незабываемым и для учительницы школы № 3 Джамбайского района Зухры Абдурах-

дагического техникума в Таджикистане женщина вернулась в Самарканд, и все эти годы значилась

к другому, и в итоге не могут решить свои вопросы. Поэтому к диалогу с народом привлечены руко-

озвучены обращения, касающиеся юридических вопросов, банков и кредитов, медицинских услуг,

экономическим развитием регионов.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.



PIROTEXNIKA — KO'NGILXUSHLIK EMAS



Ayni kunlarda Buxoro viloyati markazida pirotexnika mahsulotlarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish maqsadida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo'l harakati xavfsizligi va jinoyat qidiruv kabi xizmat sohalarining shaxsiy tarkib xodimlari, qolaversa, soliq xizmati, mahalla hamda boshqa idoralar mas'ullari ishtirokida 10 ta maxsus guruh xizmati tashkil etilib, hozirga qadar 210 dan ortiq reydlar uyushtirildi, 350 ga yaqin uchrashuvlar o'tkazildi. Shunga qaramasdan, bunday xavfli mahsulotlarning noqonuniy muomalasi bilan bog'liq o'ndan ortiq holat aniqlangani tashvishli, albatta.

Tizim xizmatlari bilan hamkorlikda dekabr oyida o'tkazilgan tadbirlar davomida viloyat markazidagi 11-sonli umumta'lim maktabi o'quvchilari Q.L. va H.S. yonidan 21 dona «Treniya» nomli pirotexnika vositalari hujjatlashtirib olingan. Xuddi shunday, voyaga yetmaganlar I.Sh.da 280 ming so'mlik, Y.A.da

300 dona, Q.B. da 200 dona, K.X.da 2952 dona «Treniya» nomli pirotexnika vositalari borligi aniqlanib, tegishli tartibda hujjatlashtirilgan.

Shuningdek, fuqaro J.J.ning yashash xonadoni ko'zdan kechirilganda, 390 ming so'mlik «Noviy vek» nomli, 2005-yilda tug'ilgan U.H.ning yonida 710 ming so'mlik «Britanik» nomli pirotexnika vositalari borligi aniqlanib, tegishli tartibda hujjatlashtirib olingan.

Shu kabi maxsus reydlarda aniqlanayotgan va ma'muriy dalolatnoma asosida rasmiylashtirilayotgan holatlar bo'yicha to'plangan hujjatlar qonuniy chora ko'rish uchun hududiy sud organiga, qolaversa, voyaga yetmaganlar komissiyalariga yuborilgan. Bu kabi chora-tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad – Yangi yil shodiyonasi munosabati bilan tashkil etiladigan tadbirlarning betalafot va yuqori kayfiyatda o'tishini ta'minlashdir.

Rustam YUSUPOV,
podpolkovnik.
Buxoro viloyati.

O'QUV KURSI DAVOM ETMOQDA

Shimoli-g'arbiy harbiy okrugning Nukus garnizoni bazasida tashkil etilgan Ixtisoslashtirilgan o'quv markazida Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga to'g'ridan-to'g'ri tanlov asosida qabul qilingan xodimlar uchun boshlang'ich kasbiy tayyorgarlik kurslarida vazirlikning ofitserlik va safdorlik xizmatiga qabul qilingan xodimlar 2024-yilning 11-yanvar kuniga qadar boshlang'ich kasbiy tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida o'quv yig'inlarida ishtirok etadi.

– Ayni paytda 63 nafar tinglovchi o'quv kursi mashg'ulotlariga jalb etilgan, – deydi Ixtisoslashtirilgan o'quv kursi komandiri, mayor Azamat Ashimov. – Tinglovchilarga tasdiqlangan jadval asosidagi darslar Qoraqalpog'iston Respublikasi IIVning ko'p yillik tajriba va malakaga ega xodimlari tomonidan zamonaviy interfaol metodlardan



jamoat joyida o'zini tutishi tartib-qoidalariga to'g'risida batafsil tushuntirib borilmoqda, – deydi tinglovchi Baxtiyar Nurbekov. – Shu bilan birga, mashg'ulotlardan bo'sh paytlari sport bilan shug'ullanish, kutubxonada kitob o'qib, ma'naviy olamni boyitib borish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Ta'kidlash joizki, xizmatga yangidan qabul qilingan xodimlarga bu kabi zarur bilim va ko'nikmalarning berilishi kelgusida tartib-intizomga rioya etish, xizmat samaradorligini oshirishga zamin yaratadi.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.
Qoraqalpog'iston Respublikasi.

foydalangan holda o'tkazib kelinmoqda.

– Bu yerda bizning kasbiy bilimlarimizni shakllantirish davomida xizmatga doir qonun hujjatlari, quroldan foydalanish, xizmat kiyimiga qo'yiladigan talablar, shuningdek, fuqarolar bilan munosabat, xodimlarning



14-YANVAR – VATAN HIMOYACHILARI KUNI

FAOL VA TASHABBUSKOR

IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli Namangan viloyatida joylashgan 7552-harbiy qism tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar guruhi mas'ul ijrochisi, III darajali serjant Ulug'bek Mamadaliyevning tashkilotchiligi, sa'y-harakatlari natijasida shaxsiy tarkib Qorovul qo'shinlari miqyosida o'tkazib kelinayotgan turli ko'rik-tanlov va musobaqalarda faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqda. «Konstitutsiya bilimdoni», «Yagonasan, muqaddas Vatan!» hamda «Temur tuzuklari bilimdoni» ko'rik-tanlovlari shular

jumlasidandir. Naman-gan harbiy prokuratura-si bilan hamkorlikda harbiy xizmatchilar-ning farzandlari o'rta-sida tashkil etilgan «Yosh matematik» va «Ingliz tili bilimdoni» ko'rik-tanlovlari ham ona Vatanimiz himoyachilarining farzandlari umumja-moa hisobida 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Lavhamiz qahramoni-ning otasi, iste'fodagi katta serjant Mahammadjon Qo'chqorov ham ko'p yillar yurt himoyasi yo'lida xizmat qilgan. Endilikda uning kasbi-ni o'g'li Ulug'bek muvaffaqiyat bilan davom ettirmoqda.

U. Mamadaliyev harbiy qism shaxsiy tarkibi bilan tarbiyaviy-profilaktik ishlarni o'z vaqtida muntazam olib bormoqda. Buning samarasi o'laroq, tan jarohati bilan bog'liq holatlarning so-dir etilishiga, mahkumlar va ularning oila a'zolari bilan noqonuniy aloqa o'rnatilishiga hamda yo'l-transport hodisalari va ma'muriy huquqbuzarliklarga yo'l qo'yilmadi. Shu bilan birgalikda, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish borasida ham beshta muhim tashabbus doirasida bir qator tadbirlar amalga oshirib kelina-yotir.



Harbiy qism shaxsiy tarkibining bilim saviyasi va jangovar tayyorgarligini oshirish borasidagi xizmatlari munosib e'tirof etilib, III darajali serjant

U. Mamadaliyev «Qo'shin a'lochisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

**Gulchehra
BUVAMIRZAYEVA,
o'z muxbirimiz.**

BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ!

ISHONCHNI SO'NDIRGUVCHI ILLAT

Jizzax shahrining «Jizzaxlik» mahallasida yashovchi J.X. dehqonchilik qilish niyatida yer surishtira boshladi. Bundan «Yoshlik» mahallasida yashovchi A.P. xabar topib, Baxmal tumanining «Oyqor» qishloq fuqarolar yig'ini hududidan 15 gektar ekin maydonini 25 ming AQSH dollariga sotib olishni taklif qildi. J.X.ning yerga oid hujjatlar bilan qiziqqanligini bilgan A.P. bo'lsa, hech qanday hujjatlar yo'qligini, ekin maydoni fermer xo'jaligi ixtiyorialigini va bu dehqonchilik qilishda muammo tug'dirmasligini bildirdi. O'z navbatida, J.X. yerga egalik qilishga oid qonunlarni o'rgana boshladi va yer maydonini sotish hamda sotib olish faqat auktsion savdolari orqali amalga oshirilishini bilib qoldi.

Qisqasi, ko'p o'tmay J.X.dan 200 million so'm olgan A.P. viloyat IIB TQX JQB Korruptsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish bo'limi xodimlari tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbir davomida qo'lga olindi.

G'allaorol tumanining «Sarbozor» mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi S.K. esa Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Jizzax filialiga ishga kirmoqchi bo'lganida undan mazkur filialning 2 nafar xodimi 700 AQSH dollari miqdorida pora talab qildi. Ammo bu taklif yigitni qoniqtirmadi va holat yuzasidan ichki ishlar organiga ariza yozdi. Tezkor tadbir davomida,

S.K.ni haydovchi sifatida ishga joylashtirmoq uchun 9 million so'm olgan tumanning «Ko'kgumbaz» mahallasida yashovchi D.A. hamda «Zargar» mahallasida istiqomat qiluvchi I.T. ushlendi.

Jizzax shahrining «Qaliya» mahallasida yashovchi N.I. bog'dorchilik bilan shug'ullanish maqsadida kredit olmoqchi bo'lganida Baxmal tumanidagi bank xodimi M.R. 200 AQSH dollari miqdorida pora so'radi. Ushbu noqonuniy talab tadbirkorni qoniqtirmadi. Natijada 200 dollarni olishi bilan M.R.ning qo'lga kishan taqildi.



Yaxshi ma'lumki, bundayin jinoyatlar jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, xalqning davlatga bo'lgan ishonchini so'ndiradi. Shu bois huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, xususan, ichki ishlar organlari xodimlari korruptsiyaviy qonun-



buzarliklarga qarshi keskin kurashmoqdalar.

– 2023-yilda bo'limimiz tomonidan 13 ta poraxo'rlik, 10 ta tovlamachilik, 49 ta firibgarlik, 6 ta valyuta savdosi, 3 ta qalbaki pul yasash, 18 ta talon-toraj hamda 81 ta boshqa turdagi jinoyatlar fosh

qilindi, – deydi viloyat IIB TQX JQB Korruptsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish bo'limining o'ta muhim ishlar bo'yicha tezkor vakili, kapitan To'ychi Asatov. – Natijada davlat va fuqarolar manfaatlariga qariyb 26 milliard 806 million so'm zarar yetkazilgani aniqlanib, bu mablag'ning 16 milliard 302 million so'mini undirish choralari ko'rildi.

Soha vakillari muntazam ravishda targ'ibot tadbirlari uyushtirib, ommaga korruptsiya hamda iqtisodiy jinoyatlarning oqibatlarini to'g'risida ma'lumotlar berishmoqda. Qisqasi, xodimlar jamiyat taraqqiyoti, barqarorlik, demokratiya va inson huquqlarining ustuvorligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi korruptsiyaga qarshi kurashish ishiga munosib hissa qo'shmoqdalar.

**Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.**

Jizzax viloyati.



XALQARO HAMKORLIK MUHIM

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi, ya'ni, narkobiznes jahon taraqqiyoti va barqarorligiga putur yetkazuvchi jiddiy muammoga aylangan. BMT Narkotik moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi hisobotiga ko'ra, birgina 2020-yilda dunyo bo'ylab taxminan 275 million kishi giyohvandlik moddalarini iste'mol qilgan, 36 milliondan ortiq inson giyohvandlikdan aziyat chekkan. Narkobiznesdan kelib tushayotgan katta foyda odam savdosi, terrorizm kabi og'ir jinoyatlarni moliyalashtirishga sarflanayotgani xavotirni yanada kuchaytiradi.



Ko'plab davlatlarda narko-biznes bilan bog'liq ko'rsatkichlar tobora tez sur'atlarda ortib bormoqda. Shunga qaramay, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning butun dunyo bo'ylab noqonuniy tarzda tarqatilayotgan umumiy hajmidan bor-yo'g'i 10–15 foizi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan aniqlanmoqda, xolos.

1925-yilning fevralida Jenevada bo'lib o'tgan xalqaro anjumanda Opium bo'yicha xalqaro konvensiya imzolandi. Ushbu hujjatda kelishuv ishtirokchilarining asosiy vazifalaridan biri sifatida narkotiklar kontrabandasiga qarshi kurashishni tashkil qilish belgilandi. Xuddi shuningdek, 1931-yildagi xalqaro konvensiya ham narkotiklarning ishlab chiqarilishi va savdosini cheklash prinsipini hayotga tatbiq etishga qaratildi.

Yuqorida ko'rsatilgan konvensiyalarning qabul qilinishi giyohvandlik vositalarining aylanishi ustidan nazoratni ma'lum darajada kuchaytirdi, ammo unga qarshi kurashning davlat ichidagi shakllari va usullari hali mukammal emas edi.

Afsuski, 1936-yilda ishlab chiqilgan xalqaro konvensiya ham universal tus olmadi. Negaki, ayrim mamlakatlar o'zini konvensiya bo'yicha majburiyatlar bilan bog'lagisi kelmadi va uni ratifikatsiya ham qilmadilar, imzolamadilar ham.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishda nazoratni

amalga oshirishning xalqaro huquqiy tizimini jiddiy takomillashtirish zarurati, ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi tugagandan keyin yaqqol ko'zga tashlandi. Mavjud shartnomalarni qayta ko'rib chiqish jarayonida, xalqaro universal kelishuv hamda boshqa barcha keyingi shartnomalarni ishlab chiqishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti muhim rol o'ynadi.

1961-yilning 24-yanvaridan 25-martigacha AQSHning Nyu-York shahrida giyohvandlik vositalari to'g'risida yangi xalqaro ko'p tarafdin shartnoma ishlab chiqish maqsadida navbatdagi konferensiya bo'lib

ko'payib borayotgani tufayli mutlaq katta e'tiborni talab qiladigan muammoga aylandi. Shu bois konferensiya Giyohvandlik vositalari to'g'risida Yagona konvensiyani va bir qator rezolyutsiyalar (jumladan, giyohvandlik vositalarini noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda manfaatdor taraflarga texnik yordam ko'rsatish to'g'risida, giyohvandlarni davolash usullari to'g'risida, xalqaro nazorat apparatini soddalashtirish to'g'risida, davlatlarning xalqaro jinoiy politsiya tashkiloti bilan hamkorligi to'g'risida va hok.) ni qabul qildi. Shuningdek, giyohvandlik vositalarini ularning xavfliligi darajasiga qa-

bilan qonunga xilof ravishda muomala qilinishiga qarshi kurashishning xalqaro huquqiy negizlarini rivojlantirish bir tekisda kechgani yo'q. Bu jarayonda davlatlarning narkotiklar xavfiga qarshi kurashishda sa'y-harakatlarni birlashtirishga umumiy intilishi yaqqol ko'zga tashlangan, mamlakatlarning xalqaro maydondagi faolligi sustlashgan davrlar ham kuza-tildi.

Mamlakatimizda giyohvandlikka qarshi kurash va uning oldin olish borasida bir qator xalqaro konvensiyalar qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston 1961-yildagi Giyohvandlik

yasining to'laqonli ishtirokchisi hisoblanadi. Mazkur konvensiyalar yuzasidan olingan majburiyatlarining bajarilishi yuzasidan tegishli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz giyohvandlikka qarshi kurashish borasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida izchil harakat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan muomala qilish tartibi «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi Qonun bilan belgilanadi. Qonunga muvofiq, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonuniy muomalada bo'lishi tartibga solingan. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat qilmishlar uchun javobgarlik amaldagi Jinoyat kodeksi maxsus qismida belgilangan.

Xullas, transmilliy jinoyatchilikning bir turi sanalgan giyohvandlik va narkobiznes insoniyat kelajagi uchun ulkan xavf solayotir. Shu bois, global muammoga aylangan ushbu illatga qarshi kurashishda davlatlararo hamkorlikni yanada mustahkamlash va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hilola AMANOVA,
Toshkent shahar IIBB
huzuridagi Tergov
boshqarmasi katta
tergovchisi, podpolkovnik.



o'tdi. Unda yangi konvensiya ishlab chiqishga bo'lgan zarurat shu bilan izohlandiki, ilgari qabul qilingan xalqaro hujjatlarning ayrim normalari eskirdi, giyohvandlik esa nafaqat yo'q bo'lib ketmadi, balki narkotik moddalarni suiiste'mol qiluvchi shaxslarning soni muttasil

rab to'rtta guruhga ajratishni tatbiq etildi hamda shunga ko'ra, ushbu vositalarning iste'mol qilinishi va aylanishi ustidan xalqaro va ichki davlat nazoratini o'rnatish choralari belgilab berildi.

Yuqoridagilardan ko'rindiki, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar

vositalari to'g'risida Yagona konvensiya, 1971-yildagi Psixotrop moddalar to'g'risidagi BMT konvensiyasi, 1988-yildagi Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishga qarshi kurash to'g'risidagi Vena konvensi-

SALOMATLIK SABOQLARI

BAYRAM TATISIN DESANGIZ...

Yangi yil dasturxonini haqida gap ketganda barchaning ko'z oldida xilma-xil salatlar, taomlar-u shirinliklar, sharbatlardan tortib gazli ichimliklargacha paydo bo'ladi. Go'yoki ularsiz bayram dasturxonini tasavvur qilish qiyin. Ammo bu kabi bayram ziyofatida iste'mol qilinadigan ko'plab taomlar sog'liqqa katta zarar yetkazishi ma'lum bo'ladi. Kelayotgan yilda sog'liq borasida muammolarga duch kelmaslik uchun ehtiyot bo'lish kerakligini unutmaslik lozim.

Inson sog'lig'i ovqatlanishning alohida tarkibiga, mahsulotlar va taomlarning sifatiga bevosita bog'liq. To'g'ri ovqatlanish kasallik holatlarining 80 foizining oldini olishda ahamiyatlidir.

Ovqat to'liq hazm bo'lmasdan turib, yana taom yeyilsa, hazm jarayoni og'irlashadi. Chunki oshqozonda ovqat ustiga yana taom tushishi, shira aralashishi me'yori buzadi. Bu, o'z o'rnida, kishida qorin g'uldirashi, dam bo'lishi va lohaslik kabi holatlarining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, ba'zida bayram arafasida jigar, buyrak va oshqozon osti bezi kasalliklariga chalinganlarda ushbu xastaliklarning zo'rayishi kuzatiladi. Ma'lumki, me'da ovqatga to'lib ketsa, uning harakat funksiyasi yomonlashadi, natijada oshqozondagi oziq moddalarining shira bilan aralashishi qiyinlashib, hazm jarayoni izdan chiqadi.

Agar qorin to'yishiga oz qolganda ovqatdan qo'l tortilsa, hazm a'zolarining ishi yengillashadi, odam o'zini



yaxshi his qiladi va keyingi ovqatlanishga ishtaha saqlaydi.

Demak, bayram kunlarida noxush holatlarga oldini olish uchun, avvalo, ovqat iste'mol qilish tartibiga rioya etish lozim. Kun davomida sabzavotli salatlar, oshko'klar, ho'l mevalardan oz-ozdan iste'mol qilingani ma'qul.

Tajribada aniqlanishicha, tabiiy mahsulotlar ko'proq yeyilganda 50 foiz hollarda hazm qilish a'zolari yaxshi ishlaydi. Natijada me'da-



ichaklar ishi osonlashib, organizmning ovqat hazmiga sarflanadigan energiyasi birmuncha tejaladi.

Bayramda ko'pchilik spirtli ichimlik ichishdan o'zini to'xtatolmaydi. Unutmang, alkogolli ichimliklar me'da buzilishining asosiy sababchisidir.

Bundan tashqari, ularni iste'mol qilsangiz ishtahani kuchaytirishi sababli, to'yganingizni bilmay qolasiz.

Bayram kuni ko'p ovqat yeb qo'ymaslik uchun stressni maksimal darajada kamaytirish kerak. Buning uchun bir kun oldin to'yib uxlash, charchoqdan qutulish, xavotirli o'y-xayollarni haydash lozim.

Agar dasturxonga o'tirishdan oldin bir stakan suv ichilsa ochlik hissi

biroz bosiladi. Tamaddilar orasida ham suv yoki sharbat ichish to'qlik hissini tezlashtiradi.


Dasturxonda noz-ne'matlar ko'p bo'lsa, shoshilmay yeyavering, «tugab qolmaydi». Aksincha, luq-mangizni yaxshilab chaynasangiz qorin tez to'yadi va yegan ovqatingiz yaxshi hazm bo'ladi.

Mehmonga borganda dasturxondagi barcha mahsulotdan tatib ko'rishni hech qachon o'z oldingizga maqsad qilib qo'ymang. Barcha aralashtirib yeyilgan narsalarni hazm qilish ham oshqozon uchun azob. Agar o'zingizga ma'lum cheklovlar qo'ysangiz va ularni bajarsangiz, ya'ni, sizni «yana ozroq yeng», deb majburlashsa ham o'zingizni tiya olsangiz, me'dangiz va qomatingiz buzilmaydi, bayram siz uchun ko'ngilli o'tadi.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA
tayyorladi.

ЧТО ТАКОЕ АСТЕНИЯ?

Астения – состояние, характеризующееся слабостью, раздражительностью, ощущением быстрой утомляемости, не проходящим даже после отдыха. Астения может проявляться как у мужчин, так и у женщин в любом возрасте.



Как проявляется астения

Слабость, снижение переносимости физических и умственных нагрузок, нарушение внимания, снижение памяти, непереносимость шума, повышенная утомляемость, раздражительность, безразличие к окружающему, головная боль, нарушение аппетита и сна.

Астения может встречаться как симптом основного заболевания, при острых и хронических заболеваниях, при сахарном диабете, после травм головного мозга, инсультах, онкологических заболеваниях, при циррозе печени, заболеваниях желудка.

Также может возникать в послеродовом периоде,

при переутомлении, при работе в напряженном состоянии, при длительных физических нагрузках, нарушениях режима сна и отдыха, частых сменах часовых поясов.

Профилактика астении

При умственных нагрузках рекомендованы занятия спортом, плавание, активный отдых, ЛФК, при нарушениях сна наладить качество и режим сна, в некоторых случаях медикаментозная терапия.

При физических нагрузках рекомендован массаж, лечение полученных травм, физиотерапия, медикаментозное лечение.

При длительных стрессах, при перенесенных психотравмах, при тяжелых жизненных обстоятельствах рекомендована помощь психологов, психотерапевтов.

Нигина ХАМРОЕВА,
врач-психиатр
поликлиники
Медицинского отдела
УВД Бухарской области.

ПОЛЕЗНЫЕ САЛАТЫ
НА ПРАЗДНИЧНЫЙ СТОЛ

Салат из капусты

Ингредиенты: мясо курицы – 400 г, капуста красная – 400 г., консервированная кукуруза – 5 ст. л., грецкие орехи – 20 г., семечки тыквы – 15 г., сметана – 2 ст. ложки, соль по вкусу.

Способ приготовления:

Нарезаем куриное филе, можно просто разобрать на волокно. Тонко шинкуем капусту, пересыпаем в миску и немного мнем руками. Добавляем в салат кукурузу, грецкие орехи, тыквенные семечки, заправляем сметаной, немного солим и все перемешиваем.



Овощной салат с грибами

Ингредиенты: 200 г шампиньонов, 200 г. консервированной красной фасоли, 50 г. грецких орехов, один красный болгарский перец, один красный лук, зелень (петрушка, кинза, зеленый лук), 3 ст. л. льняного масла (можно любое), 2-3 ст. л. уксуса, два зубчика чеснока, соль и перец по вкусу.

Способ приготовления: шампиньоны нарезаем пластинками и обжариваем до готовности. Даем остыть. Режем полукольцами красный лук, болгарский перец – соломкой. Отправляем все в салатник. Добавляем остывшие грибы и красную фасоль. Обжариваем грецкие орехи. Измельчаем и добавляем в салат. Туда же отправляем зелень и зеленый лук. Заправлять салат заправкой (масло наливаем в отдельную посуду, к нему добавляем уксус 2-3 ст. л.). Перемешиваем. Салат солим, перчим и добавляем заправку. Все хорошо перемешиваем.



«НУРЛИ МАСКАН»

ПО ПУТИ ДОБРА

На днях в городе Асаке в школе-интернате «Нурли маскан» № 16 для незрячих и слабовидящих детей был организован новогодний утренник «Дорогою добра».

На праздничное мероприятие были приглашены сильные духом ребята, веселые и находчивые, которые любят петь, танцевать, играть в игры и умеют дружить по-настоящему. Дед Мороз и Снегурочка поздравили каждого ребенка, пожелали успехов. В конце представления никто из детей не остался без подарков, которые помогли приобрести сотрудники Асакинского РОВД, одними из первых откликнувшись на



по вопросам несовершеннолетних Асакинского РОВД майор Уткирбек Холмирзаев: «Мы рады дарить вам но-

вогоднее настроение и положительные эмоции. Рады, что удалось погрузить вас в волшебный мир сказки и вручить заветный подарок».

– Когда видишь, как ребенок, несмотря на сложности, искренне радуется – начинаешь и сам верить в чудо, – говорит директор школы-интерната «Нурли маскан» Дониёрбек Корабоев. – Спасибо личному составу Асакинского РОВД, который внес весомый вклад в организацию мероприятия.



участие в новогодней акции.

Утренник прошел радостно и весело. Дети светились от счастья, они получили много ярких впечатлений. С теплыми словами и поздравлениями с наступающим Новым годом к ребятам обратился начальник отделения

... Спроси у жизни строгой, какой идти дорогой?
Куда по свету белому отправиться с утра?
Иди за солнцем следом, хоть этот путь неведом,
Иди, мой друг, всегда иди дорогою добра....

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.



О'ТGANLARNING OXIRATI OBOD BO'LSIN

IIV Malaka oshirish instituti jamoasi tibbiyot xizmati shifokor-epidemiologi, leytenant Gulnoza Rahimovaga volidayi muhtaramasi

Dilbar BABAYEVANing

vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

MUNAJJIMLAR BASHORATI

(1 – 7-yanvar)



Qo'y. O'tib ketgan ko'ngilsiz voqealarni yodga olib qayg'uga botishni to'xtating. Dunyoga go'zal nigoh bilan boqing. Biznes faoliyatida hisob-kitobda adashishdan ehtiyot bo'ling. Muhim hujjatlarga imzo qo'yishda sergaklikni qo'ldan bermang. Salomatlikni yanada mustahkamlash uchun kechqurunlari uzoq vaqt piyoda sayr qilish tavsiya etiladi.



Buzoq. Bu hafta ishda ham, shaxsiy hayotda ham ko'pgina jiddiy to'siqlarga duch kelishingiz mumkin. Shuning uchun hafta boshidan bunga ruhan tayyor turishingiz kerak. Taqdirdan nolimgang, o'zingizni koyimgang, dunyoga va hayotga real ko'z bilan qarang, shuning o'zi yetarli. Siz albatta to'siqlarni mardona yengib o'tasiz. Bunda hamkasblaringiz ham yaqindan yordam ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas.



Egizaklar. Bu davrda notanish kishilar bilan muloqot qilishingizga to'g'ri kelsa, sirlaringizni to'kib solishdan saqlaning. Ichki his-tuyg'ularni o'zingizdan boshqasiga ishonmang. Moliyaviy muammolar bu hafta sizni bezovta qilmaydi, aksincha, barcha ishlaringiz osongina baroridan keladi.



Qisqichbaqa. Haftaning ilk kunlari moliyaviy ahvolingiz yaxshilanib, hatto sarmoyali takliflar olishingiz mumkin. Bu pallada sizni yangi taassurotlar va yorqin his-tuyg'ular kutmoqda. Ham shaxsiy masalalar, ham ish yuzasidan ko'p joylarda bo'lishingiz kutilmoqda. Faqat o'z vaqtida dam olishni, salomatlikka e'tibor qaratishni ham unutmang.



Arslon. Siz uchun hafta biroz og'ir kechadi. Do'stlar yoki hamkasblar aybi bilan noxush vaziyatlarga tushib qolishingiz mumkin. Bunday holatlarda har jabhada mustaqil bo'lish tavsiya qilinadi. Hafta so'ngida imkoniyatingiz ko'tarsa, kichik oilaviy bayram uyushtiring. Bu yaqinlaringiz bilan munosabatlar jipslashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.



Parizod. Dushanba va seshanba shaxsiy hayotga e'tibor qaratish uchun qulay palla. Keyingi kunlar odatdagidek bir xilda va zerikarli o'tishi, na yaxshi, na yomon xabar ulashmasligi kutilmoqda. Hafta so'ngi og'ir keladi, bu jabhada me'yordan ortiq kuch-g'ayrat sarflamaslikka urining.



Tarozi. Bu hafta uchun tuzgan rejalarining aksariyati amalga oshishi mumkin. Hammasi sizga yaqin insonlarga, ularning qo'llab-quvvatlashiga bog'liq. Kelib tushadigan moliyaviy takliflarga jiddiy ahamiyat qarating. Oilaviy hayotda esa, aksincha, ikir-chikirlarga e'tibor qilmay, ko'proq mehr ulashishga harakat qiling.



Chayon. Haftangiz unumli kechishi kutilmoqda. Agar kuzatuvchanlikni oshirsangiz, ish joyingizda martabangiz yuqorilashi ehtimoli yuksak. Bu davrda sira qiynalmasdan ro'zg'or hamda moliyaviy muammolarni bartaraf etishga erishasiz. Biroq salomatlikka e'tibor qaratishni ham unutib qo'ymang.



O'qotar. Hafta boshidan hech kim bilan bahslashmang. Bu katta janjalga aylanib ketishi mumkin. Ayniqsa, birovlariga kelajak rejalariningizni bildirga ko'rmang. Yangi ishlarga qo'l urishdan oldin aqlingizni va kuchingizni to'plab olishingiz zarur bo'ladi. Eng quvonarlisi, oilaviy hayotingizda sokinlik va baxt hukm suradi.



Tog' echkisi. Ko'ngilsizliklarni chetlab o'tish niyatida bo'lsangiz, yo'l-yo'lakay uchraydigan mayda-chuyda noqulayliklarga ham e'tibor bering. Ishxonadagi yumushlarni bajarib, yuqori natijaga ega bo'lishni xohlasangiz, astoydil, ter to'kib ishlashingizga to'g'ri keladi.



Qovg'a. Bu davr siz uchun juda yoqimli va quvonchli kechadi. Faqat pul masalasida tavakkalchilikka yo'l qo'ymang. Unutmang, pul, hisob-kitoblarni aniqlik va ehtiyotkorlikni talab qiladi. Juma kunidan keyin ish joyida tushunmovchiliklar, moliyaviy qiyinchiliklar va oilada muammolar kuzatilishi mumkin. Bunga siz tomondan mas'uliyatning sustlashishi va intizomga amal qilmaslik sabab bo'ladi.



Baliq. Haftangiz juda ajoyib boshlanadi va siz har bir vaziyatni o'z xohishingiz bo'yicha tashkil etish imkoniga ega bo'lasiz. Asosiysi, qo'rqmang. Dadil va mardona oldinga qadam tashlang. Zararli odatlar anchadan beri siz uchun qiyinchiliklar tug'dirayotgan bo'lsa, bugun ulardan xalos bo'lish payti keldi.



BIZNING CHEMAIONLAR



ABDUMALIK — YILNING ENG YAXSHI ERKAK SPORTCHISI

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi, Xitoyning Xanchjou shahrida bo'lib o'tgan XIX yozgi Osiyo o'yinlarida boks bo'yicha oltin medalni qo'lga kiritgan Toshkent shahar IIBB xodimi, leytenant Abdumalik Xalokov 24-dekabr kuni Toshkent shahridagi «Renaissance hall»da Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Milliy Olimpiya va Paralimpiya qo'mitalari tomonidan «Milliy sport mukofoti – 2023» taqdirlash marosimida «Yilning eng yaxshi erkak sportchisi» sifatida e'tirof etildi.

AZIZBEK — OSIYODA TENGSIZ

Joriy yilning 20–24-dekabr kunlari Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida qo'l jangining «Usmanov kombat systems» turi bo'yicha Osiyo chempionati o'tkazildi.

Mazkur nufuzli musobaqada IIV Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash qo'shinlarining kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchisi, oddiy askar Aziz Mo'yidinov zafar quchdi. U o'z vazn toifasida barcha raqiblarini dog'da qoldirib, Osiyo chempioni degan yuksak unvonga sazovor bo'ldi. Bundan tashqari, mazkur sport turi bo'yicha bo'lib o'tadigan Jahon chempionati yo'llanmasini ham qo'lga kiritdi.



MUZAFFARBEEK OLIMPIADAGA BORADI

Hozirda Toshkent viloyati IIBB 4-mintaqaviy hudud Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbarlik otryadi kichik mutaxassis-haydovchisi lavozimida xizmat qilayotgan safdor M.To'raboyev mamlakatimiz mustaqilligining 32 yilligi arafasida – «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi» faxriy unvoni bilan taqdirlandi. U shu kunlarda kelgusi yili Fransiyaning Parij shahrida bo'ladigan XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlariga qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqda.

Joriy yilning 4–6-avgust kunlari Vengriyaning Budapesht shahrida bo'lib o'tgan dzyudo bo'yicha «Masters» xalqaro



turnirini 23 yoshli Muzaffarbek ikki karra olimpiada va jahon chempioni chexiyalik Lukash

Krpalek ustidan qozonilgan g'alaba bilan boshlab, chempionlik yo'lida barcha nomdor raqiblarni mag'lub etdi. Bu bilan u 12 yillik o'zbek dzyudo kurashchilari g'alabasi tarixini yangilashga muvaffaq bo'ldi.

Muzaffar yurishlarini davom ettirgan lavhamiz qahramoni shu yilning 23-sentabrdan 8-oktabrgacha Xitoyning Xanchjou shahrida o'tkazilgan XIX yozgi Osiyo o'yinlarida ham mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritdi. Shuningdek, 6–13-oktabr kunlari poytaxtimizda tashkil etilgan dzyudo bo'yicha jahon chempionatida ham oltin medal sohibiga aylandi. Umuman, shu kunga qadar u yurtimiz va xalqaro doiradagi turli musobaqalarda 30 dan ortiq medal va kuboklarni qo'lga kiritib, o'zining naqadar kuchli sportchi ekanligini ko'rsatdi.

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Kamol OLLOYOROV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-
yozma va suratlar egasiga
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosil-
ganda manba ko'rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter
markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Buyurtma №4086.

Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 50436 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postdauz